

G.N.Qurbonova

**KASBIY KOMPETENSIYANI
SHAKLLANTIRISHDA MANTIQUIY-
OPERATIV TAFAKKURNING ROLI**
(TIBBIYOT OTMLARI MISOLIDA)

BUXORO-2026

KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA MANTIQIY-OPERATIV TAFAKKURNING ROLI [Matn]: monografiya /Kurbanova Gulnoz Negmatovna - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2026.

TAQRIZCHILAR:

Sh.Sh.Olimov

Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrası
professori, p.f.d.

Z.A.Axmedova

Buxoro davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası
mudiri, dotsent

Mazkur monografiyada kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida mantiqiy-operativ tafakkurning nazariy-metodologik asoslari va amaliy ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, klinik va pedagogik faoliyat sharoitida tezkor, asosli hamda mas'uliyatli qaror qabul qilish mexanizmlari yoritilib, simulyatsion texnologiyalar, diagnostik tahlil va refleksiv yondashuvning o'rnini asoslab beriladi. Mantiqiy-analitik, regulativ va refleksiv tafakkur komponentlarining kasbiy kompetensiya tarkibidagi integrativ roli ochib berilib, ularni rivojlantirishga qaratilgan metodik model taklif etiladi. Monografiya oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilar va amaliyotchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutining2026-yildagi ..-sonli Ilmiy Kengashi bayonnomasi asosida chop etishga tavsiya etilgan.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida kasbiy kompetensiyaning shakllantirish masalasi ustuvor ilmiy-pedagogik yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, mehnat bozori talablari va kasbiy faoliyatning murakkablashuvi mutaxassisdan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki tezkor, mantiqan asoslangan va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy kompetensiyaning tarkibiy yadrosi sifatida mantiqiy-operativ tafakkur alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mantiqiy-operativ tafakkur — bu mutaxassisning kasbiy vaziyatni yaxlit va tizimli ravishda tahlil qila olish, asosiy hamda ikkilamchi omillarni farqlash, muqobil yechim variantlarini shakllantirish va eng maqbul qarorni tezkorlik bilan, aniq dalillar hamda asoslantirilgan xulosalarga tayangan holda qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi intellektual jarayondir. U mantiqiy-analitik fikrlash, algoritmik yondashuv, xavf stratifikatsiyasi, resurslarni boshqarish va refleksiv nazorat kabi komponentlarning integratsiyasiga asoslanadi. Ayniqsa, yuqori mas'uliyat va vaqt cheklovi mavjud bo'lgan sohalarda (tibbiyot, muhandislik, boshqaruv, xavfsizlik tizimlari va boshqalar) operativ tafakkur kasbiy samaradorlikning muhim ko'rsatkichiga aylanadi.

Kasbiy kompetensiya zamonaviy pedagogik yondashuvlarda bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar, qadriyatlar hamda shaxsiy fazilatlarining o'zaro uyg'unlashgan va integratsiyalashgan tizimi sifatida izohlanadi. Biroq kompetensiyaning amaliy namoyon bo'lishi ko'p jihatdan mutaxassisning vaziyatga mos ravishda fikrlashi va tezkor harakat qilishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham mantiqiy-operativ tafakkur kompetensiyaning funksional va dinamik komponenti sifatida qaraladi.

Keyingi yillarda ta'lim tizimida simulyatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvlar faol qo'llanilmoqda. Shunga qaramay, mantiqiy-operativ tafakkurni izchil va tizimli shakllantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash, uning tarkibiy komponentlarini belgilash hamda samarali pedagogik modelini ishlab chiqish hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu monografiyada aynan shu muammo kompleks yondashuv asosida o'rganiladi.

Monografiyaning maqsadi — kasbiy kompetensiyaning shakllantirish

jarayonida mantiqiy-operativ tafakkurning nazariy asoslarini ochib berish, uning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: kasbiy kompetensiya mazmunining zamonaviy ilmiy yondashuvlardagi talqinlarini o'rganish va tahlil etish; mantiqiy-operativ tafakkurning psixologik hamda pedagogik negizlarini belgilash; tezkor qaror qabul qilish jarayonining izchil bosqichlarini tartibga solish va tizimlashtirish; simulyatsion texnologiyalar asosida tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan konseptual modelni ishlab chiqish; refleksiv tahlil va regulyativ nazoratning kasbiy rivojlanishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berish.

Monografiya nazariy tahlil, tizimli yondashuv, modellashtirish, pedagogik tajriba hamda refleksiv metodlarga tayangan holda ishlab chiqilgan. Unda mantiqiy-analitik, operativ, regulyativ va refleksiv tafakkur komponentlarining o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda yoritiladi hamda ularni rivojlantirishning bosqichli modeli taklif etiladi.

Mazkur ilmiy ish oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar hamda kasbiy faoliyatida tezkor va asosli qaror qabul qilish zarur bo'lgan mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Monografiya kasbiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini boyitish va amaliy pedagogik jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi.

I BOB. TIBBIYOT TA'LIMIDA MANTIQUIY-OPERATIV TAFAKKUR RIVOJINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Mantiqiy-operativ tafakkur tushunchalarining psixologik va pedagogik talqini

Bugungi kundagi zamonaviy tibbiy ta'lim tizimi jadal ilmiy-texnologik rivojlanish, klinik ma'lumotlar hajmining ortishi, shuningdek tibbiy qaror qabul qilish jarayonlarining murakkablashuvi bilan bevosita tavsiflanadi. Bunday sharoitda bo'lajak tibbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayoni faqat algoritmlashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, klinik fikrlashning turli shakllarini ongli ravishda rivojlantirishni ham taqozo etadi. Xususan, konvergent va kreativ tafakkurning psixologik hamda pedagogik mohiyatini ilmiy asosda talqin qilish tibbiy ta'lim samaradorligini oshirishning muhim nazariy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur masalaning dolzarbligi zamonaviy tibbiy ta'lim oldida turgan vazifalar bilan uzviy bog'liqdir.

Qayd etish lozimki, konvergent va kreativ tafakkur kategoriyalarini psixologik hamda pedagogik nuqtayi nazardan ilmiy asosda sharhlash zarurati tibbiy ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tibbiy ta'lim yuqori darajadagi kasbiy mas'uliyat, klinik qaror qabul qilishda xatoga yo'l qo'yimaslik talabi hamda inson hayoti bilan bog'liq xavf omillari mavjudligi bilan ajralib turadi. Shu sababli bo'lajak tibbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayonida tafakkurning faqat algoritmlashtirilgan yoki faqat ijodiy shakllarini rivojlantirish yetarli emas, balki konvergent va kreativ tafakkurni uyg'un ravishda shakllantirish ilmiy-pedagogik zarurat sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, tibbiy faoliyat klinik fikrlashning ikki asosiy mexanizmga tayanishi bilan xarakterlanadi. Bir tomondan, konvergent tafakkur talabalarda anatomik, fiziologik va patologik bilimlarni tizimlashtirish, klinik protokollar va standart algoritmlar asosida tashxis qo'yish hamda xavfsiz davolash qarorlarini qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Ikkinchi tomondan esa, tibbiy amaliyotda tez-tez uchraydigan atipik simptomlar, komorbid holatlar va noaniq klinik manzaralar kreativ tafakkurni faollashtirishni taqozo qiladi. Mazkur holat tibbiy ta'limda tafakkur turlarini psixologik jihatdan to'g'ri talqin qilishni ayniqsa dolzarb etadi.

Pedagogik jihatdan tadqiq qilinganda, tibbiy ta'lim tizimida ta'lim mazmuni va metodlari aksariyat hollarda konvergent tafakkurga ustuvor yo'naltirilgan bo'lib, bu talabalarda reproduktiv klinik fikrlashning

shakllanishiga olib kelishi mumkin. Natijada, standart klinik holatlardan chetga chiqadigan vaziyatlarda talabalar qiyinchilikka duch keladilar. Shu bois konvergent va kreativ tafakkur tushunchalarini ilmiy asosda pedagogik talqin qilish tibbiy ta'lim mazmunini yangilash, klinik keystahlil, simulyatsion mashg'ulotlar hamda muammoli o'qitish texnologiyalarini joriy etish uchun mustahkam nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish ham mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Zamonaviy tibbiy kompetensiya faqat nazariy bilimlar majmuasi bilan cheklanib qolmasdan, ularni tezkor, noaniq va stress holatlarida qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu qobiliyat, o'z navbatida, konvergent tafakkur orqali bilimlarni aniq qo'llash va kreativ tafakkur orqali noodatiy klinik yechimlar ishlab chiqish uyg'unligida shakllanadi. Shu bois, mazkur tafakkur shakllarini psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan atroflicha yoritish tibbiy ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tibbiy ta'lim muhitida konvergent va kreativ tafakkur tushunchalarini psixologik hamda pedagogik jihatdan ilmiy talqin etishning dolzarbligi bo'lajak shifokorlarda klinik fikrlash madaniyatini shakllantirish, kasbiy mas'uliyat darajasini oshirish hamda innovatsion klinik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish zarurati bilan izohlanadi. Mazkur yondashuv tadqiqot doirasida ushbu tafakkur turlarini o'zaro uyg'unlikda rivojlantirishni tibbiy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etishni talab qiladi.

Bugungi kunda jahon va milliy psixologiya hamda pedagogika fanlarida tafakkur muammosi inson bilish faoliyatini anglashda asosiy ahamiyat kasb etib, uning turli shakl va ko'rinishlarini ilmiy asosda tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, konvergent va kreativ tafakkur tushunchalari shaxs intellektual rivojlanishini tavsiflovchi asosiy kategoriyalar sifatida xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida keng tahlil qilingan. Mazkur tafakkur turlarini qiyosiy tahlil qilish ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, muammolarni hal etish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Ta'kidlash joizki, xorijiy psixologiyada konvergent va kreativ tafakkur tushunchalarini ilmiy asosda farqlash XX asr o'rtalarida shakllangan. Xususan, bu borada J. Gilfordning tadqiqotlari alohida

ahamiyat kasb etadi. Olim o'z izlanishlarida tafakkurni konvergent va divergent turlarga ajratib, konvergent tafakkurni aniq qoidalar va mantiqiy operatsiyalar asosida yagona to'g'ri yechimga yo'naltirilgan fikrlash sifatida ta'riflaydi¹. Guilford fikriga ko'ra, bunday tafakkur intellektual testlar, standart vazifalar va aniq natija talab etuvchi muammolarni hal etishda samarali hisoblanadi.

E. Torrens ilmiy tadqiqotlarida kreativ tafakkur shaxsning ijodiy salohiyatini belgilab beruvchi asosiy psixologik omil sifatida tadqiq etiladi. U kreativ tafakkurni g'oyalar flyuentligi, fleksibilligi, originalligi va murakkabligi orqali baholashni taklif qilib, ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan². Torrens ta'kidlashicha, kreativ tafakkur yetarli darajada rivojlanmagan ta'lim tizimi innovatsion taraqqiyot talablariga to'liq javob bera olmaydi.

G'arb pedagogikasida konvergent tafakkur ko'proq an'anaviy o'qitish modellari bilan bog'lanib, bilimlarni qayta tiklash va standart algoritmlar asosida qo'llash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Kreativ tafakkur esa, o'z navbatida, kompetensiyaviy yondashuv doirasida talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi hamda yangi yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini ta'minlovchi asosiy resurs sifatida baholanadi³.

Mahalliy va rus psixologik-pedagogik manbalarda ushbu masalaga L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, I.A. Zimnyaya kabi olimlar muhim hissa qo'shganlar. Vigotskiy tafakkurni ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida talqin qilib, ijodiy fikrlashning shakllanishini ta'lim va muloqot muhiti bilan bevosita bog'laydi⁴. Uning ta'limotida kreativ tafakkur insonning yaqin rivojlanish zonasi doirasida faol qo'llab-quvvatlanadigan psixologik jarayon sifatida izohlanadi.

A.N. Leontev o'z ilmiy izlanishlarida konvergent tafakkurni faoliyatning maqsadga yo'naltirilgan va natijani aniqlashga qaratilgan komponenti sifatida sharhlaydi. Tadqiqotchining fikricha, konvergent tafakkur faoliyat samaradorligini ta'minlaydi, biroq uning mutlaq ustunligi ijodiy imkoniyatlarni cheklashi mumkin⁵. Shu asosda Leontev

¹ Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.

² Torrance E.P. Creativity in Education. – New York: McGraw-Hill, 1977.

³ Runco M.A. Creativity: Theories and Themes. – London: Academic Press, 2014.

⁴ Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 2005.

⁵ Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1982.

kreativ tafakkurni faoliyatni qayta qurish va yangi usullar ishlab chiqish imkonini beruvchi muhim psixologik mexanizm sifatida izohlaydi.

Rus tadqiqotchisi I.A. Zimnyaya pedagogik psixologiya doirasida konvergent va kreativ tafakkurni ta'lim natijalarining sifat ko'rsatkichlari bilan bevosita uzviylikda tahlil qiladi. U ta'lim jarayonida faqat konvergent tafakkurga yo'naltirish talabalarda reproduktiv fikrlash ustun bo'lishiga olib kelishini, kreativ tafakkurni rag'batlantirish esa kompetensiyalarning barqaror shakllanishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi⁶.

Mahalliy pedagog va psixolog olimlarning ilmiy izlanishlarida ham kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish muammosi zamonaviy ta'lim islohotlari jarayoni bilan chambarchas bog'liq holda yoritiladi.

Mahalliy izlanishlarda qayd etilishicha, talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish ta'lim mazmunini yangilash, interaktiv metodlar va muammoli o'qitishni joriy etish bilan chambarchas bog'liq⁷. Konvergent tafakkur esa, o'z navbatida, bilimlarni tizimlashtirish va standart kompetensiyalarni shakllantirishda zarur psixologik asos sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, konvergent va kreativ tafakkur tushunchalari psixologik hamda pedagogik jihatdan bir-birini inkor etuvchi emas, balki ta'lim jarayonida o'zaro uyg'un rivojlantirilishi lozim bo'lgan intellektual jarayonlar sifatida izohlanadi. Mazkur holat ushbu tadqiqotda tafakkur turlarini integrativ yondashuv asosida o'rganish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlili asosida shunday xulosa qilish mumkinki, konvergent va kreativ tafakkurni mustaqil, bir-biridan ajratilgan kognitiv fenomenlar sifatida talqin qilish zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga to'liq javob bermaydi. Tadqiqot nuqtai nazaridan, mazkur tafakkur turlari inson bilish faoliyatida ierarxik yoki qarama-qarshi emas, balki funksional-integrativ tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Bizningcha, konvergent tafakkur shaxsning intellektual faoliyatini tartibga soluvchi, bilimlarni aniqlashtiruvchi va qaror qabul qilish jarayonini barqarorlashtiruvchi psixologik mexanizm sifatida baholanishi lozim. U fikrlashda mantiqiy qat'iylik, me'yoriylik va natijaga

⁶ Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2004.

⁷ Қодиров А., Рахимова Д. Олий таълимда креатив тафаккурни ривожлантириш масалалари. – Т.: Фан, 2020.

yo'naltirilganlikni bevosita ta'minlaydi. Biroq konvergent tafakkurning mutlaq ustunligi fikrlash jarayonida kognitiv inersiyani kuchaytirib, noaniq va standartdan tashqari vaziyatlarda intellektual harakatchanlikni cheklashi mumkin.

Tadqiqotda kreativ tafakkur insonning kognitiv moslashuvchanligi va innovatsion salohiyatini ta'minlovchi asosiy psixologik resurs sifatida talqin etiladi. U shaxsga muammoga nisbatan yangi nuqtai nazarni shakllantirish, muqobil yechimlar doirasini kengaytirish va standart fikrlash chegaralaridan chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, kreativ tafakkur yetarli darajada konvergent nazorat bilan uyg'unlashmagan holda qarorlarning ilmiy asoslanganlik darajasini pasaytirishi mumkin.

Tadqiqot nuqtai nazaridan, samarali ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayonida konvergent va kreativ tafakkur o'rtasida dinamik muvozanat ta'minlanishi maqsadga muvofiqdir. Ilmiy jihatdan asoslangan intellektual model, eng avvalo, kreativ tafakkur orqali g'oyalar va gipotezalar generatsiyasini, so'ngra esa konvergent tafakkur yordamida ularni tahlil qilish, saralash hamda asoslash jarayonini o'z ichiga oladi.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, konvergent va kreativ tafakkurni rivojlantirishni ta'lim mazmuniga qo'shimcha unsur sifatida emas, balki ta'lim natijadorligini belgilovchi asosiy psixologik-pedagogik omil sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, yuqori intellektual mas'uliyat talab etuvchi sohalarida, jumladan tibbiy ta'limda, mazkur tafakkur turlarining uyg'un rivoji xavfsiz, asoslangan va innovatsion qaror qabul qilishning muhim ilmiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi ta'lim nazariyasi va amaliy tajribasida tafakkur shakllarini ilmiy mezonlar asosida ajratish hamda ularning rivojlanish mexanizmlarini aniqlashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, shaxs intellektual faoliyatini ifodalovchi konvergent va kreativ (divergent) tafakkur tushunchalari psixologiya hamda pedagogika doirasida kompleks o'rganilayotgan muhim ilmiy kategoriyalar qatoriga kiradi. Mazkur tafakkur turlari bilish jarayonining turli jihatlarini aks ettirib, ta'lim muhitida bilimlarni o'zlashtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va yangicha qarorlar ishlab chiqishda o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, konvergent tafakkur aniq qoidalar, algoritmlar va mantiqiy operatsiyalarga tayangan holda yagona to'g'ri yechimga yo'naltirilgan fikrlash turi sifatida talqin etiladi.

U, eng avvalo, mavjud bilimlar tizimini to'g'ri qo'llash, faktlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va standart vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Konvergent tafakkurning asosiy funksiyasi muayyan muammo doirasida eng maqbul va asoslangan yechimni topishdan iboratdir. Shuningdek, u intellektual intizom, tahliliy fikrlash va natijaga yo'naltirilganlikni talab qiladi.

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimi yuqori darajadagi intellektual mas'uliyat, tezkor qaror qabul qilish va xatolarga nisbatan minimal tolerantlik bilan xarakterlanadi. Shu bois tibbiy kadrlarni tayyorlash jarayonida tafakkurning turli shakllarini, ayniqsa konvergent va kreativ tafakkurning psixologik mexanizmlarini chuqur anglash hamda ularni uyg'un rivojlantirish ilmiy-pedagogik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Tibbiy faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ham standartlashtirilgan bilimlar, ham noaniq tibbiy vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini talab etadi.

Psixologik nuqtai nazardan, konvergent tafakkur tibbiy ta'limda klinik fikrlashning asosiy tayanchi sifatida namoyon bo'ladi. U talabalarda anatomik, fiziologik va patologik bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirish, tibbiy bayonnomalar va algoritmlar asosida fikr yuritish, tashxis qo'yishda aniq mantiqiy bog'lanishlarni o'rnatish qobiliyatini shakllantiradi. Konvergent tafakkur tibbiy qarorlar qabul qilish jarayonida klinik ma'lumotlarni saralash, muhim simptomlarni ajratib olish va standart holatlarda eng maqbul davolash taktikasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tibbiy amaliyotda barcha klinik holatlar tipik va algoritmlashtirilgan bo'lavermaydi. Atipik simptomlar, komorbid kasalliklar, yoshi hamda individual fiziologik xususiyatlari bilan farq qiluvchi bemorlar tibbiy qaror qabul qilishda kengroq intellektual yondashuvni talab etadi. Shunday vaziyatlarda kreativ tafakkur psixologik jihatdan tibbiy mutaxassisning kognitiv moslashuvchanligini ta'minlovchi asosiy resurs sifatida namoyon bo'ladi. Kreativ tafakkur talabalarga differensial tashxis doirasini kengaytirish, ehtimoliy tibbiy gipotezalarni ilgari surish hamda noodatiy tibbiy yechimlarni ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Tibbiy ta'lim psixologiyasi nuqtai nazaridan kreativ tafakkur klinik fikrlashning evristik bosqichini tashkil etadi. Mazkur bosqichda talaba standart bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, tibbiy manzarani yaxlit qabul qilish, simptomlar o'rtasida noan'anaviy bog'lanishlarni ko'ra olish, shuningdek tashxis qo'yishda ijodiy gipotezalarni shakllantirish

qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyat, xususan, shoshilinch holatlar, reanimatsiya, jarrohlik qaror qabul qilish kabi yuqori stressli vaziyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, tibbiy ta'limda faqat konvergent tafakkurga tayanish tibbiy fikrlashni qoliplashtirish va talabalarni standartdan tashqari vaziyatlarda qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin. Biroq faqat kreativ tafakkurga ustuvor ahamiyat berish ham klinik qarorlarning yetarlicha asoslanmagan bo'lishi xavfini keltirib chiqaradi. Shu sababli tibbiy ta'lim psixologiyasida tafakkurning ushbu ikki turini qarama-qarshi emas, balki o'zaro to'ldiruvchi va bosqichma-bosqich ishlaydigan intellektual mexanizmlar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot nuqtai nazaridan, tibbiy ta'limda samarali klinik fikrlash modeli quyidagi psixologik zanjir asosida shakllanadi: avvalo, kreativ tafakkur orqali klinik vaziyatga oid ehtimoliy gipotezalar yaratiladi, so'ngra konvergent tafakkur yordamida ushbu gipotezalar dalillar, laborator-instrumental ma'lumotlar va klinik standartlar asosida tekshiriladi hamda saralanadi. Mazkur model tibbiy qaror qabul qilishda xavfsizlik, asoslanganlik va samaradorlikni ta'minlaydi.

Demak, tibbiy ta'lim muhitida konvergent va kreativ tafakkurning psixologik xususiyatlarini tahlil etish ushbu tafakkur shakllarini o'zaro uyg'un holda rivojlantirish bo'lajak tibbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayonining muhim psixologik omillaridan biri ekanini ilmiy asosda dalillash imkonini beradi. Ushbu yondashuv talabalarda klinik fikrlash madaniyatini shakllantirish, kasbiy mas'uliyatni oshirish va noaniq tibbiy holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda konvergent tafakkur ko'pincha an'anaviy ta'lim modellari bilan bog'lanadi. Bunda talabalardan berilgan bilimlarni qayta tiklash, namunaviy masalalarni belgilangan usullar asosida yechish va o'quv standartlariga mos ravishda aniq javob berish talab etiladi⁸. Mazkur ma'noda konvergent tafakkur ta'lim natijalarini baholash, nazorat ishlari va test tizimlarida muhim o'rin tutadi. Ammo uning ustun jihatlari bilan bir qatorda cheklangan tomonlari ham mavjud bo'lib, noaniq va ko'p variantli vaziyatlarda har doim ham samarali bo'lavermaydi.

Bunga qarama-qarshi holda, kreativ (divergent) tafakkur insonning bir muammoga nisbatan bir nechta yechim variantlarini ilgari surish,

⁸ Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2004.

standart qoliplardan chiqib fikrlash va yangi g'oyalar yaratish qobiliyati sifatida ta'riflanadi⁹. Psixologiyada ushbu tafakkur turi shaxsning intellektual erkinligi, fantaziyasi, intuitsiyasi va assotsiativ tizimi bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi. Kreativ tafakkur jarayonida natijaning yagona to'g'riligi emas, balki yechimlar xilma-xilligi, yangiligi va amaliy qiymati ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kreativ tafakkur konsepsiyasining ilmiy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, uning rivojida J. Guilford, E. Torrens, G. Uollas kabi tadqiqotchilarning ishlari muhim o'rin tutdi¹⁰. Xususan, Guilford tafakkurni konvergent va divergent shakllarga ajratgan holda, divergent tafakkurni ijodiy faoliyatning muhim psixologik negizi sifatida ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning fikricha, kreativ tafakkur g'oyalar oqimining tezligi (flyuentlik), fikrlash moslashuvchanligi (fleksibillik), yangiligi (originallik) hamda murakkablik darajasi kabi mezonlar orqali ifodalanadi.

Pedagogik yondashuv nuqtayi nazaridan esa kreativ tafakkurni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining innovatsion maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liq jarayon hisoblanadi. Zero, bugungi globallashuv sharoitida ta'limning ustuvor maqsadi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki mustaqil fikrlay oladigan, noan'anaviy vaziyatlarda oqilona qaror qabul qila biladigan hamda kasbiy va ijtimoiy muhitga moslasha oladigan shaxsni shakllantirishdan iboratdir¹¹. Ushbu maqsadga erishish esa an'anaviy reproduktiv o'qitish modellari doirasida cheklanib qolmasdan, ijodiy tafakkurni faol rag'batlantiruvchi innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishni taqozo qiladi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda ta'lim innovatsiyalari, avvalo, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni passiv axborot qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirishga yo'naltirilgani bilan izohlanadi¹². Mazkur nuqtai nazardan kreativ tafakkur ta'lim jarayonida innovatsion vazifalarni amalga oshirishning ichki intellektual mexanizmi sifatida qaraladi. Kreativ tafakkur shakllangan talaba muammoli vaziyatni tayyor qolip va algoritmlar asosida emas, balki tahlil va sintez jarayonlari, intuitsiya hamda amaliy tajribaning o'zaro uyg'unligi negizida hal etishga harakat qiladi.

⁹ Torrance E.P. Creativity in Education. – New York: McGraw-Hill, 1977.

¹⁰ Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.

¹¹ Краевский В.В. Методология педагогики. – М.: Академия, 2018.

¹² Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат современного образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

Pedagogikada innovatsion vazifalardan biri bu talabalarda ijodiy mustaqillikni shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayonda kreativ tafakkur shaxsning ta'lim mazmuniga faol munosabatini, bilimlarni qayta ishlash va ularni yangi sharoitlarga moslashtirish qobiliyatini ta'minlaydi¹³. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, ijodiy tafakkur rivojlanmagan holda ta'lim innovatsiyalari tashqi shaklda qolib ketishi, ya'ni yangi texnologiyalar joriy etilgan bo'lsa-da, talabalarning faoliyati mazmun jihatidan o'zgarmasligi mumkin.

Shuningdek, kreativ tafakkurni rivojlantirish ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda kompetensiya faqat bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi emas, balki ularni noaniq, o'zgaruvchan va ko'p variantli vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin etiladi¹⁴. Ushbu qobiliyat esa bevosita kreativ tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli innovatsion ta'lim modellari talabalarda ijodiy fikrlashni shakllantirishni strategik vazifa sifatida ilgari suradi.

Pedagogik amaliyotda kreativ tafakkurni rivojlantirish innovatsion vazifalarni hal etishning samarali vositasi sifatida turli interaktiv va muammoli usullar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, muammoli o'qitish, keys-tahlil, loyiha faoliyati, dizayn-tafakkur, reflektiv muhokamalar kabi metodlar talabalarni standart qoliplardan chiqib fikrlashga, muqobil yechimlar taklif etishga va o'z fikrlarini asoslashga undaydi. Bu usullar ta'lim mazmunini innovatsion jihatdan boyitib, talabalarning intellektual faolligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi (1.1-jadvalga qarang).

Xususan, yuqori mas'uliyatli kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kreativ tafakkurning ahamiyati yanada oshadi. Tibbiy-pedagogik ta'limda talabalar standart bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, noan'anaviy holatlarni tahlil qilish, tezkor va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Mazkur ma'noda kreativ tafakkurni rivojlantirish ta'lim innovatsiyalarining amaliy samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, kreativ tafakkurni rivojlantirish ta'limning innovatsion vazifalari bilan chuqur uyg'unlashgan jarayon bo'lib, u zamonaviy ta'lim modellari mazmuni va shaklini belgilab beruvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu jihat tadqiqot doirasida

¹³ Хуторской А.В. Инновационные процессы в образовании. – М.: Высшая школа, 2016.

¹⁴ Байденко В.И. Компетентностный подход в образовании. – М.: Логос, 2017.

kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari hamda unga ta'sir etuvchi shart-sharoitlarni ilmiy asosda tahlil qilish zaruratini yana bir bor asoslab beradi.

1.1-jadval. Konvergent va kreativ tafakkurning qiyosiy tahlili

Qiyosiy mezonlar	Konvergent tafakkur	Kreativ tafakkur
Psixologik mohiyat	Aniq qoidalar va mantiqiy algoritmlarga asoslangan fikrlash	Ochiq, erkin va ko'p variantli fikrlash
Yechimga yo'nalish	Yagona to'g'ri yechimni topishga qaratilgan	Bir muammo uchun bir nechta alternativ yechimlar yaratish
Bilish jarayoni	Tahlil, taqqoslash, saralash ustuvor	Assotsiatsiya, intuitsiya, fantaziya ustuvor
Fikrlash xarakteri	Intizomli, tizimli, cheklangan	Elastik, noodatiy, innovatsion
Standart vaziyatlarda	Yuqori samaradorlikka ega	Kamroq namoyon bo'ladi
Noaniq/murakkab vaziyatlarda	Cheklangan imkoniyatga ega	Yuqori samaradorlikni ta'minlaydi
Ta'limdagi ustuvor vazifa	Bilimlarni to'g'ri qo'llash, xatosiz qaror qabul qilish	Yangi g'oyalar ishlab chiqish, innovatsion yechim topish
Tibbiy ta'limdagi roli	Klinik protokollar, algoritmlar, standart tashxis	Atipik holatlar, differensial tashxis, noodatiy qarorlar

Tibbiy ta'lim tizimi o'zining yuqori mas'uliyat darajasi, qaror qabul qilishda xatoga yo'l qo'ymaslik talabi va klinik holatlarning murakkabligi bilan ajralib turadi. Shu bois mazkur sohada talabalarda konvergent va kreativ tafakkurni uyg'un rivojlantirish pedagogik va psixologik jihatdan strategik ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, tibbiy mutaxassis faoliyatida standart bilimlar bilan bir qatorda noodatiy klinik holatlarni tahlil qilish qobiliyati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, konvergent tafakkur tibbiy ta'limda, avvalo, tibbiy bayonnomalar, diagnostik algoritmlar va standart davolash sxemalarini o'zlashtirishda asosiy intellektual mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Talabalar aynan ushbu tafakkur turi orqali aniq klinik belgilarni tizimlashtirish, laborator va instrumental tekshiruv natijalarini mantiqiy bog'lash hamda tasdiqlangan tashxisga kelishni o'rganadilar. Mazkur jarayonda fikrlashning intizomliligi va algoritmlashtirilganligi tibbiy xatolarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Biroq tibbiy amaliyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, barcha bemorlar holati standart tibbiy sxemalarga to'liq mos kelavermaydi. Atipik simptomlar, qo'shimcha kasalliklar yoki noaniq klinik manzaralar tibbiy qaror qabul qilishda kreativ tafakkurni faollashtirishni talab qiladi. Kreativ tafakkur tibbiy ta'limda talabalarni differensial tashxis qo'yish, ehtimoliy patologiyalarni taqqoslash va noodatiy klinik qarorlar ishlab chiqishga tayyorlaydi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiy ta'limda faqat konvergent tafakkurga tayanish klinik fikrlashni qoliplashtirishi mumkin. Mazkur holat talabalarning standartdan chetga chiqish qobiliyatini cheklab, noaniq vaziyatlarda ishonchsiz qaror qabul qilinishi ehtimolini oshiradi. Aksincha, faqat kreativ tafakkur ustun bo'lgan holatda esa klinik qarorlarning yetarlicha asoslanmaganligi va xavfli subyektiv xulosalar paydo bo'lish ehtimoli mavjud.

Shu sababli zamonaviy tibbiy pedagogikada konvergent va kreativ tafakkurning funksional uyg'unligi asosiy metodologik tamoyil sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, avvalo kreativ tafakkur orqali klinik gipotezalar shakllantirilib, keyinchalik konvergent tafakkur yordamida ular klinik dalillar va standartlar asosida tekshiriladi. Bu yondashuv klinik fikrlashning muvozanatli va xavfsiz modelini ta'minlaydi.

Tibbiy ta'limda konvergent va kreativ tafakkurning qiyosiy tahlili ushbu tafakkur turlarini qarama-qarshi yoki o'zaro istisno etuvchi kognitiv fenomenlar sifatida emas, balki tibbiy mutaxassisning kasbiy faoliyatida bir-birini funksional jihatdan to'ldiruvchi intellektual resurslar sifatida talqin etish zarurligini namoyon etadi. Tibbiy bilim va amaliyotning o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan qat'iy klinik bayonnomalar, standartlashtirilgan algoritmlar va dalillarga asoslangan qaror qabul qilishni talab etsa, ikkinchi tomondan noaniq, atipik va ko'p omilli klinik holatlarda ijodiy yondashuvni taqozo qiladi. Bu esa tibbiy ta'lim jarayonida tafakkurning faqat bitta turiga ustuvor ahamiyat berish metodologik jihatdan cheklangan yondashuv ekanligini ko'rsatadi.

Konvergent tafakkur tibbiy ta'limda klinik fikrlashning mantiqiy-tahliliy asosini tashkil etib, talabalarda tashxis qo'yish, klinik ma'lumotlarni tizimlashtirish va standart holatlarda xavfsiz qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Biroq tibbiy amaliyotda uchraydigan ko'plab holatlar klinik shablonlar doirasiga to'liq mos kelmasligi sababli, kreativ tafakkur ishtirokisiz qabul qilingan qarorlar yetarlicha samarali bo'lmasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan, kreativ tafakkur tibbiy ta'limda klinik gipotezalar doirasini kengaytirish, differensial tashxis

imkoniyatlarini oshirish va individual klinik yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, tibbiy ta'lim jarayonida samarali intellektual faoliyat ikki pog'onali kognitiv model asosida amalga oshadi: avval kreativ tafakkur yordamida muqobil yechimlar ishlab chiqiladi, so'ng konvergent tafakkur vositasida ushbu variantlar ilmiy-mantiqiy mezonlar asosida tanlab olinadi va saralanadi. Ushbu model tibbiy qaror qabul qilishda xavfsizlik, asoslanganlik va innovatsionlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini beradi. Xususan, yuqori xavfli klinik holatlarda mazkur uyg'unlik tibbiy xatolar ehtimolini kamaytirish bilan bir qatorda, noodatiy vaziyatlarda samarali yechim topish imkoniyatini ham ta'minlaydi.

Mazkur holat tibbiy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali har ikki tafakkur turini uyg'un rivojlantirish masalasini ilmiy jihatdan asoslashni taqozo qiladi. Muammoli ta'lim, klinik keys-tahlillar, simulyatsion mashg'ulotlar, ssenariy asosidagi modellastirish hamda refleksiv munozaralar singari innovatsion usullar talabalarda bir paytning o'zida algoritmik tafakkurni ham, ijodiy klinik yondashuvni ham shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, konvergent va kreativ tafakkurning uyg'un rivoji tibbiy ta'limning innovatsion mazmunini belgilab beruvchi asosiy psixologik-pedagogik shartlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy ta'limda konvergent va kreativ tafakkurni bir-biriga zid qo'yish emas, balki ularning integrativ rivojini ta'minlash zamonaviy tibbiy kadrlarni tayyorlashning ilmiy asoslangan strategik yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu yondashuv tibbiy mutaxassislarda klinik tafakkur madaniyatini qaror toptirish, kasbiy mas'uliyat hissini kuchaytirish hamda innovatsion klinik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, konvergent va kreativ tafakkur o'zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi intellektual mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlarda ularning uyg'un rivojlanishi shaxsning kasbiy kompetensiyasi va intellektual barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Xususan, tibbiy ta'lim kabi yuqori mas'uliyat va tezkor qaror qabul qilishni talab etuvchi sohalarda standart klinik algoritmlar (konvergent tafakkur) bilan bir qatorda noan'anaviy klinik holatlarni tahlil qilish (kreativ tafakkur) muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, konvergent va kreativ tafakkur kategoriyalarining psixologik hamda pedagogik talqini ularni ta'lim jarayonida o'zaro uyg'unlikda va tizimli ravishda rivojlantirish zaruratini namoyon etadi. Bu holat esa tadqiqot doirasida mazkur tafakkur shakllarining o'zaro aloqadorligi, rivojlanish omillari hamda pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil etishni dolzarb ilmiy vazifa sifatida kun tartibiga olib chiqadi.

1.2. Tibbiyot ta'limida klinik tafakkur, konvergent fikrlash va kreativ yondashuv uyg'unligi

Zamonaviy tibbiyot ta'limida bo'lajak shifokorlarni tayyorlash jarayoni nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga, balki klinik tafakkurni shakllantirishga qaratilgan kompleks pedagogik vazifalar majmuasini o'z ichiga oladi. Klinik tafakkur tibbiy ta'lim tizimida bilimlar, amaliy tajriba va kasbiy qaror qabul qilish jarayonlarini integratsiya qiluvchi asosiy intellektual mexanizm sifatida talqin etiladi¹⁵. U shifokorning simptomlarni tahlil qilish, klinik ma'lumotlarni tizimlashtirish, tashxis qo'yish, davolash taktikasini belgilash va bemor holatining ehtimoliy rivojlanishini prognoz qilish qobiliyatini ta'minlaydi¹⁶.

Ilmiy manbalarda klinik tafakkur ko'p bosqichli va murakkab kognitiv jarayon sifatida tavsiflanadi. U, avvalo, klinik muammoni aniqlash va uni to'g'ri formulalashdan boshlanib, bemor shikoyatlari, anamnez ma'lumotlari, obyektiv tekshiruv natijalari hamda laborator-instrumental ko'rsatkichlarni tizimli ravishda yig'ish va tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi¹⁷. Keyingi bosqichda talaba yoki shifokor mavjud ma'lumotlar asosida differensial tashxis doirasini shakllantiradi, ya'ni ehtimoliy patologik holatlarni mantiqiy jihatdan taqqoslaydi va ustuvor variantlarni ajratib oladi. Shundan so'ng ilgari surilgan klinik gipotezalar dalillar, qo'shimcha tekshiruvlar va klinik kuzatuv natijalari asosida tekshiriladi hamda yakuniy klinik xulosaga kelinadi.

Mazkur jarayonning samaradorligi analitik (konvergent) va evristik (kreativ) fikrlash mexanizmlarining o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishiga bog'liq. Analitik yondashuv klinik ma'lumotlarni

¹⁵ Elstein A.S., Schwartz A. *Clinical problem solving and diagnostic decision making*. — BMJ, 2002.

¹⁶ Norman G. *Research in clinical reasoning*. — Medical Education, 2005.

¹⁷ Elstein A., Shulman L., Sprafka S. *Medical problem solving: An analysis of clinical reasoning*. — 1978.

izchil tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va mavjud standartlarga muvofiq ravishda qaror qabul qilishni ta’minlaydi. Evristik yondashuv esa noaniq yoki atipik klinik vaziyatlarda muqobil gipotezalarni ilgari surish, simptomlar o‘rtasidagi noan’anaviy bog‘lanishlarni ko‘ra olish va kompleks klinik manzarani yaxlit talqin qilish imkonini beradi.

Konvergent fikrlash klinik algoritmlar, standart protokollar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga tayangan holda eng maqbul tashxis va davolash taktikasini tanlashni ta’minlaydi. U qaror qabul qilish jarayonida mantiqiy qat’iylilik, tizimlilik va klinik xavfsizlikni kafolatlovchi muhim intellektual mexanizm hisoblanadi. Aynan konvergent fikrlash orqali shifokor klinik ma’lumotlarni saralaydi, ustuvor simptomlarni aniqlaydi va ilmiy asoslangan davolash strategiyasini belgilaydi. Shu bilan birga, mazkur mexanizm kreativ tafakkur bilan uyg‘unlashgan holda klinik qarorlarning ham asoslangan, ham moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy klinik amaliyot ko‘plab noaniq, atipik va ko‘p omilli holatlar bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda bemorlarning komorbid kasalliklari, individual genetik va fiziologik xususiyatlari, turmush tarzi omillari hamda ijtimoiy determinantlar klinik manzaraning murakkablashuviga olib kelmoqda. Natijada ko‘plab holatlar klassik klinik protokollar va standart algoritmlar doirasiga to‘liq mos kelmaydi. Bunday vaziyatlarda shifokordan nafaqat tayyor sxemalarni qo‘llash, balki klinik vaziyatni kompleks va kreativ talqin qilish, muqobil gipotezalarni ilgari surish, ehtimoliy tashxis variantlarini kengaytirish hamda individual diagnostik va terapevtik strategiyani ishlab chiqish talab etiladi¹⁸.

Ayniqsa, shoshilinch holatlar, kam uchraydigan patologiyalar, simptomlar kombinatsiyasining noodatiy namoyon bo‘lishi yoki davolashga kutilgan javobning kuzatilmasligi shifokorning kognitiv moslashuvchanligini sinovdan o‘tkazadi. Bunday sharoitda kreativ tafakkur klinik tafakkurning evristik komponenti sifatida namoyon bo‘lib, muammoni yangi nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, yashirin klinik bog‘lanishlarni aniqlash va noan’anaviy, biroq ilmiy asoslangan qarorlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Demak, klinik tafakkur faqat reproduktiv bilimlarni qo‘llash yoki mavjud algoritmlarni takrorlash bilan cheklanmaydi. U o‘z mohiyatiga

¹⁸ Eva K. What every teacher needs to know about clinical reasoning. – 2005.

ko'ra moslashuvchanlik, refleksivlik, tanqidiy tahlil va innovatsion qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Refleksiv komponent shifokorga o'z qarorlarini qayta ko'rib chiqish, diagnostik xatolar ehtimolini tahlil qilish va klinik strategiyani zarurat tug'ilganda o'zgartirish imkonini beradi. Innovatsion yondashuv esa klinik amaliyotda individualizatsiyalangan va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarini uyg'unlashtirish orqali yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, zamonaviy tibbiy faoliyat shifokordan konvergent aniqlik va kreativ moslashuvchanlikning uyg'unligini talab etadi. Mazkur integrativ klinik tafakkur modeli murakkab hamda dinamik klinik vaziyatlarda samarador, xavfsiz va ilmiy dalillarga tayangan qarorlar qabul qilishning mustahkam psixologik asosini yaratadi.

Tibbiy pedagogika nuqtayi nazaridan esa klinik tafakkurni rivojlantirish jarayoni izchil, bosqichli hamda metodologik jihatdan puxta asoslangan holda yo'lga qo'yilishi zarur.

Mazkur jarayon, eng avvalo, fundamental nazariy bilimlarni chuqur va tizimli o'zlashtirishdan boshlanadi. Talabalar anatomiya, fiziologiya, patofiziologiya, farmakologiya va boshqa bazaviy fanlar doirasida mustahkam ilmiy asosga ega bo'lishi zarur, chunki klinik tafakkur aynan shu nazariy poydevor ustida shakllanadi. Nazariy bilimlarning tizimliliigi va mantiqiy bog'liqligi keyinchalik klinik vaziyatlarni tahlil qilishda intellektual asos vazifasini bajaradi.

Keyingi bosqichda egallangan bilimlar klinik keyslar, simulyatsion mashg'ulotlar, ssenariyli modellashirish hamda muammoli vaziyatlar orqali amaliy faoliyatga tatbiq etiladi. Bu jarayonda talaba passiv axborot qabul qiluvchi emas, balki klinik muammoni mustaqil tahlil qiluvchi va qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Klinik keyslar real amaliyotga yaqinlashtirilgan vaziyatlarni modellashirish imkonini berib, differensial tashxis qo'yish, laborator va instrumental ma'lumotlarni talqin qilish hamda davolash taktikasini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Simulyatsion treninglar esa yuqori xavfli yoki kam uchraydigan klinik holatlarni xavfsiz o'quv muhitida mashq qilish imkonini yaratadi, bu esa talabaning kognitiv va emotsional tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Muammoli o'qitish texnologiyalari klinik tafakkurning refleksiv va evristik komponentlarini faollashtiradi. Talaba muammoni mustaqil ravishda aniqlash, gipotezalar ilgari surish, ularni dalillar asosida tekshirish va yakuniy xulosaga kelish jarayonida analitik hamda kreativ

fikrlash mexanizmlarini uyg'un qo'llashni o'rganadi. Shu tariqa nazariya va amaliyot o'rtasida uzviy integratsiya yuzaga keladi.

Ushbu integrativ yondashuv talabada bilim, ko'nikma va tafakkur mexanizmlarining o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Natijada klinik qaror qabul qilishning ilmiy asoslangan, mantiqan izchil va xavfsiz modeli shakllanadi. Bunday model nafaqat dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga tayanadi, balki noaniq va murakkab vaziyatlarda moslashuvchan va refleksiv yondashuvni ham nazarda tutadi. Demak, klinik tafakkurni bosqichma-bosqich va integrativ tarzda rivojlantirish zamonaviy tibbiy ta'limning muhim pedagogik strategiyasi hisoblanadi.

Shunday qilib, klinik tafakkur zamonaviy tibbiyot ta'limida kasbiy kompetensiyaning markaziy yadrosi sifatida namoyon bo'ladi. U shifokorning nafaqat bilim darajasi, balki klinik vaziyatni anglash, tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatini belgilovchi integrativ intellektual tizimdir. Klinik tafakkur konvergent fikrlashning mantiqiy-intizomiy asoslari hamda kreativ yondashuvning evristik imkoniyatlari uyg'unligida rivojlanadi. Ya'ni, bir tomondan u dalillarga asoslangan tibbiyot, klinik protokollar va standart algoritmlarga tayansa, ikkinchi tomondan noaniq, atipik va murakkab vaziyatlarda moslashuvchan hamda innovatsion qaror ishlab chiqish imkonini beradi.

Konvergent fikrlash klinik tafakkurning strukturaviy barqarorligini ta'minlab, tashxis va davolash jarayonida mantiqiy izchillik, aniqlik va xavfsizlikni kafolatlaydi. Kreativ yondashuv esa klinik gipotezalarni kengaytirish, differensial tashxis doirasini chuqurlashtirish va individual klinik strategiyani ishlab chiqishda evristik imkoniyat yaratadi. Mazkur ikki komponentning uyg'unlashuvi klinik qaror qabul qilish jarayonini bir vaqtning o'zida ham ilmiy asoslangan, ham moslashuvchan, ham innovatsion darajaga olib chiqadi.

Pedagogik jihatdan bu uyg'unlik bo'lajak shifokorlarning kasbiy barqarorligi va intellektual yetukligini shakllantiradi. U talabalarda nafaqat bilimlarni qo'llash ko'nikmasini, balki mas'uliyatli, refleksiv va tanqidiy fikrlash madaniyatini ham rivojlantiradi. Psixologik nuqtai nazardan esa klinik tafakkurning integrativ modeli stressli va yuqori xavfli vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlash, tezkor va asoslangan qaror qabul qilish hamda kasbiy xatolar ehtimolini kamaytirish imkonini beradi.

Demak, klinik tafakkurning konvergent va kreativ komponentlari uyg'unligi zamonaviy tibbiy ta'limda yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishga qodir, mas'uliyatli va moslashuvchan mutaxassisni

tayyorlashning muhim psixologik-pedagogik sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuv tibbiy ta'limning mazmuni va o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi hamda kasbiy kompetensiyaning mustahkam va chuqur shakllanishiga zamin yaratadi. Kasbiy tafakkur, insonning o'z faoliyatini samarali boshqarish, turli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish, analitik va kreativ fikrlashni rivojlantirish qobiliyatidir. Bu tafakkur turli sohalarda, ayniqsa, tibbiyot, ta'lim, texnologiya va boshqa ixtisosliklarda muvaffaqiyatli ishlash uchun muhimdir. Kasbiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi, albatta, pedagogik muloqot bilan chambarchas bog'liqdir. Pedagogik muloqot o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sirni anglatadi va bu jarayon talabalar kasbiy tafakkurini shakllantirishda bevosita ahamiyatga ega.

Pedagogik muloqotning asosiy maqsadi – talabalar bilan fikr almashish, ular bilan muhokama qilish, interaktiv va dialogik yondashuvlarni qo'llash orqali o'rganish jarayonini chuqurlashtirishdir. Mazkur jarayonda o'qituvchi faqat bilim beruvchi subyekt sifatida emas, balki talabalarga fikrini ravon bayon etish, savollar qo'yish, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish hamda tahliliy tafakkurni shakllantirishga yo'naltiruvchi pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Kasbiy tafakkur esa, o'z navbatida, yuqori darajada mantiqiy va analitik fikrlashni, muammolarni hal qilishda to'g'ri qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Pedagogik muloqot orqali talabalar o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rib, konstruktiv bahs-munozaralarda ishtirok etib, yangi yondashuvlarni o'rganadilar. Bunday jarayonlar kasbiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik muloqotning kasbiy tafakkur rivojlanishidagi o'рни

1. Interaktiv yondashuvlar va fikr almashish: Pedagogik muloqot, ayniqsa, interaktiv yondashuvlarni qo'llagan holda talabalarga o'z fikrlarini erkin ifodalash imkonini beradi. Bu jarayonda o'qituvchi talabalarga savollar berib, ularning tanqidiy fikrlashini rag'batlantiradi, muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Kasbiy tafakkurni rivojlantirish uchun talabalar o'z fikrlarini boshqalar bilan muloqotda bo'lish orqali kengaytiradilar.
2. Tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Pedagogik muloqotda talabalar o'z fikrlarini va g'oyalarini tahlil qilishga o'rgatiladilar. O'qituvchi tomonidan olib boriladigan tanqidiy tahlil va konstruktiv

muloqotlar talabalarni o'z fikrlarini aniq va dalillarga asoslangan tarzda izhor etishga undaydi. Bunday jarayon kasbiy tafakkurda zarur bo'lgan analitik fikrlashni rivojlantiradi va talabalarga professional muammolarni hal qilishda yordam beradi.

3. Muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish: Kasbiy tafakkur ko'pincha murakkab va noaniq vaziyatlarda qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Pedagogik muloqot jarayonida talabalar o'zaro muloqotda bo'lib, bir nechta qarorlar va yondashuvlarni muhokama qilishadi. Bu esa ularning muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.
4. O'rganish va ijodkorlikni rag'batlantirish: Pedagogik muloqotning yana bir muhim jihati – bu o'rganishni va ijodkorlikni rag'batlantirishdir. Muloqot orqali talabalar nafaqat o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashadi, balki yangi g'oyalar va yechimlarni ishlab chiqadilar. Kasbiy tafakkur esa doimiy o'zgarishlarga moslashish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Pedagogik muloqot bu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi.
5. Emotsional va ijtimoiy intellektni rivojlantirish: Kasbiy tafakkur o'z ichiga emotsional intellektni ham oladi. Pedagogik muloqot talabalarga o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqotda bo'lish va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli boshqarish ko'nikmalarini o'rgatadi. Mazkur ko'nikmalar kasbiy faoliyat jarayonida talabalar uchun alohida ahamiyat kasb etadi, zero ular o'z hissiyotlarini hamda boshqalarning emotsional holatini anglab, shunga mos tarzda munosabat bildirishlari zarur.

Pedagogik muloqotning kasbiy tafakkurga ta'siri

- Shaxsiy va kasbiy rivojlanish: Pedagogik muloqot orqali talabalar nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanishga ham erishadilar. Muloqot jarayonida o'qituvchi ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va o'z ustida ishlashga undaydi. Bu esa kasbiy tafakkurning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.
- Tegishli ko'nikmalarni o'zlashtirish: Muloqot jarayonida talabalar tahliliy fikrlash, qaror qabul qilish, mantiqiy tahlil, va boshqa ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu ko'nikmalar kasbiy tafakkurning asosini tashkil qiladi va talabalarga amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi.
- Professional mas'uliyatni oshirish: Pedagogik muloqot yordamida

talabalar o'zlarining kasbiy faoliyatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rganadilar. Bu esa ularning kasbiy tafakkurlarini yanada chuqurlashtiradi va yanada samarali ishlashlariga yordam beradi.

Kasbiy tafakkurni rivojlantirishda pedagogik muloqotning o'rnida juda katta. Muloqot yordamida talabalar o'z fikrlarini to'g'ri va samarali ifodalash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Pedagogik muloqot nafaqat bilimlarni o'rganishga, balki talabalar kasbiy tafakkurlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bunday muloqot talabalarni o'z kasbiy faoliyatiga yondoshuvlarini o'zgartirishga va ularni yanada professional va samarali bo'lishga rag'batlantiradi.

Insonning kamol topishi, ijtimoiylashuvi va individning shaxs sifatida shakllanishini, shuningdek, uning jamiyat bilan o'zaro munosabatini muloqotsiz tasavvur etish mumkin emas. Muloqot o'ziga xos ijtimoiy-psixologik ehtiyoj sanaladi. Polshalik psixolog Ye. Melibruda ta'kidlaganidek, shaxslararo munosabatlar inson uchun havodek zarurdir. Ayniqsa, go'daklik va o'smirlik davrlarida muloqot yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'lib, yangi psixologik sifatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Muloqot — bu insonlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan kelib chiqadigan ko'p qirrali va murakkab jarayondir. U birgalikdagi faoliyat ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini qamrab oladi hamda pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar o'zaro munosabatga kirishishda, avvalo, til vositasiga tayanadilar.

Muloqotning yana bir muhim tomoni — o'zaro ta'sir va harakatlar uyg'unligidir. Nutq jarayonida fikr almashinuvi nafaqat so'zlar, balki imo-ishora va harakatlar orqali ham amalga oshadi. Masalan, suhbat jarayonida qoniqish yoki rozilikni bildiruvchi mimika va jestlar ham kommunikativ ahamiyatga ega. Shuningdek, muloqotning perseptiv jihatini, ya'ni suhbatdoshlarni o'zaro idrok etish jarayoni ham muhim o'rin tutadi. Inson boshqalar bilan muloqotga kirishishdan oldin ularga nisbatan muayyan munosabat shakllantiradi — hurmat, ishonch yoki befarqlik kabi.

Demak, muloqot jarayonida uch asosiy komponent — pedagogik (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro hamkorlikdagi harakat) va perseptiv (o'zaro idrok etish) jihatlari namoyon bo'ladi.

Muloqot qonuniyatlarini anglash hamda uni samarali tashkil etish ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir inson uchun zarurdir. Shaxsning "Men" konsepsiyasi aynan atrofdagilar bilan o'zaro muloqot

jarayonida shakllanadi. Insonning hayot yo‘li oilada, maktabgacha ta‘lim muassasasida, maktabda, oliy ta‘limda, mehnat jamoasida va turli ijtimoiy guruhlarda davom etib, jamoaviy munosabatlar orqali boyib boradi. Insonning yuksak ma‘naviy ehtiyojlaridan biri ham aynan muloqotga bo‘lgan ehtiyojdir.

Agar muloqotga bo‘lgan ehtiyoj qondirilmasa, inson ongining to‘laqonli rivojlanishi ham sekinlashadi. Shu sababli har bir kishi o‘z kommunikativ ehtiyojlarini muntazam ravishda ta‘minlab borishi zarur. Ba‘zi muloqot jarayonlari insonda qoniqish uyg‘otsa, ayrim holatlarda esa aksincha, norozilik yoki ruhiy noqulaylik hissi paydo bo‘lishi mumkin.

Muloqot — bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatga bo‘lgan ehtiyoji asosida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar, ta‘sir jarayonlari hamda axborot almashinuvidir. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbiy yo‘nalishi va dunyoqarashi kabi individual xususiyatlarini inobatga olish muhimdir.

Har bir yosh bosqichiga mansub shaxslar bilan muloqotda ularga mos til birliklari va ifoda vositalarini tanlash zarur. So‘zning ta‘sir kuchi, mazmuni va ohangi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, temperament xususiyatlariga mos ravishda muloqot usullarini qo‘llash samaradorlikni oshiradi. Shaxsda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda muloqotning o‘rni beqiyosdir. Hatto oddiy odob-axloq ko‘nikmalari ham bevosita kommunikativ jarayon orqali singdiriladi.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik va mahorat bilan bir qatorda, bo‘lajak pedagog kadrlar faoliyatida kasbiy madaniyatni shakllantirish muhim vazifa sifatida qayd etiladi.

Respublikamizda o‘qituvchilik kasbi vakillarining etnopsixologik xususiyatlari, shaxsiy sifatlari, pedagogik mahorati hamda shaxslararo muloqot madaniyati masalalari turli davrlarda ilmiy izlanishlar obyektiqa aylangan.

Ayniqsa, tibbiy oliy ta‘lim muassasalarida o‘qituvchining talabalar bilan olib boradigan pedagogik muloqoti alohida ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu esa pedagogik muloqot tizimining ma‘naviy mazmunini yanada boyitishni talab etadi, chunki aynan muloqot orqali ta‘lim-tarbiyaning ma‘naviy asoslari shakllanadi.

Ijtimoiy-psixologik, tarbiyaviy va ma‘naviy vazifalarning murakkabligi o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga yuqori talablar qo‘yadi. Yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishish uchun ko‘p yillik ilmiy-amaliy tajribaga tayangan holda ishlab chiqilgan samarali muloqot

yoʻnalishlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Oʻqituvchi har bir dars uchun oʻziga xos pedagogik reja ishlab chiqishi, unda dars vazifalariga mos metod va usullarni belgilashi lozim. Darsni rejalashtirish jarayonida u faqat mavzu mazmunini yetkazish bilan cheklanib qolmasligi, balki yordamga muhtoj talabalarni aniqlashi, ular uchun qulay shart-sharoit yaratishi, har bir talabaning qiziqishini qoʻllab-quvvatlashi hamda samarali hamkorlik muhitini tashkil etishi zarur.

- Talabalar bilan kutilayotgan muloqotni modellashtirishda asosiy omillardan biri oʻqituvchi va talabalar oʻrtasidagi emotsional uygʻunlikdir. Mazkur holat oʻqituvchiga dars jarayonida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muhitni oldindan tasavvur etish imkonini yaratadi. Xususan, u quyidagilarni prognoz qilishga yordam beradi:

- kelgusi mashgʻulot davomida talabalar jamoasida yuz berishi ehtimol boʻlgan turli pedagogik vaziyatlarni oldindan aniqlash;
- talabalar bilan demokratik va erkin hamkorlikka asoslangan munosabatning turli bosqichlarini tashkil etish hamda uning rivojlanish yoʻnalishlarini belgilash;
- dars jarayonida talabalarda bilishga qiziqish va ijodiy ruhni shakllantirish¹⁹.

Dars jarayonida oʻqituvchi va talabalar oʻrtasidagi boʻlajak muloqotni oldindan modellashtirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu jarayon darsning didaktik asoslarini belgilaydi, pedagogni ijodiy faoliyatga undaydi hamda talabalar bilan samarali hamkorlikni taʼminlovchi turli kommunikativ modellarni takomillashtirish imkonini beradi.

Muloqotni modellashtirish baʼzan yangi dars arafasida tezkor tarzda amalga oshirilsa, ayrim hollarda u uzluksiz va tizimli jarayon sifatida davom etadi. Bu yondashuv oʻqituvchiga dars jarayonidagi pedagogik pozitsiyasi, emotsional holati va xulq-atvorini oldindan tasavvur etish imkonini yaratadi. Shuningdek, boʻlajak muloqotning shart-sharoitlari hamda tuzilmasi aniqlashtirilib, rejalashtirilgan kommunikativ model amaliyotga tatbiq etiladi.

Pedagogik muloqotning dastlabki bosqichidayoq oʻqituvchi tanlangan metodlarning samaradorligini baholashi, talabalar jamoasining umumiy kayfiyatini, ularning ijodiy faolligi va ishchanlik ruhini sezishi zarur.

¹⁹ Грехнев В.С. Культура педагогического общения: Книга для учителя. – М.: «Просвещение», 1990

Tuzilish jihatidan pedagogik muloqot o'qituvchi ijodkorligining o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Garchi pedagog olimlar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni turli ilmiy tavsiflar asosida yoritgan bo'lsalar-da, u, avvalo, pedagogning individual psixologik xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Ilmiy tavsiyalar o'qituvchiga yo'nalish berishi mumkin, biroq muloqotning samaradorligi ko'p jihatdan uning shaxsiy fazilatlariga bog'liqdir. Jumladan, rus pedagogi V.A. Kan-Kalik ta'kidlashicha, o'qituvchining pedagogik muloqoti muayyan yo'nalishlar asosida tashkil etiladi²⁰:

Prognostik bosqich (modellashtirish) – o'qituvchi tomonidan guruh jamoasi bilan amalga oshirilishi rejalashtirilgan muloqot jarayonini oldindan loyihalash va tasavvur etish.

Pedagogik aloqa bosqichi – talaba bilan dastlabki o'zaro tanishuv jarayonida bevosita va samarali muloqotni yo'lga qo'yish.

Pedagogik jarayon bosqichi – o'qituvchining xulq-atvori va pedagogik mahorati orqali muloqotni maqsadli ravishda boshqarish va yo'naltirish.

Natijalarni tahlil qilish bosqichi – amalga oshirilgan muloqot jarayonini chuqur tahlil etish, uning yutuq va kamchiliklarini xolis baholash hamda keyingi faoliyat uchun takomillashtirilgan model ishlab chiqish²¹.

Olimning qarashlariga tayangan holda mazkur muloqot yo'nalishlarini quyidagicha izohlash mumkin. Modellashtirish bosqichida auditoriyaning umumiy xususiyatlarini inobatga olish, har bir talabaning individual-psixologik jihatlarini o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelishi ehtimol bo'lgan murakkab vaziyatlarni oldindan prognoz qilish va ularni bartaraf etish choralarini belgilash muhimdir. Shuningdek, muloqotni hamkorlik tamoyiliga asoslash, ya'ni u nafaqat o'qituvchi shaxsiga, balki talaba shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur.

Pedagogik aloqa bosqichida guruhni faol muloqotga tez jalb eta oladigan samarali suhbat texnikasini egallash, talabalarning qiziqishlarini hisobga olish, ularga erkin fikr bildirish imkonini yaratish hamda ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatish usullaridan foydalanish talab etiladi.

Pedagogik jarayon bosqichida o'qituvchining faoliyati ta'lim-

²⁰ Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т.: ТДПУ, 2003.

²¹ Кан-Калик В.А. Тренинг профессионально-педагогического общения (Методические рекомендации). М.: Просвещение, 1990. -30

tarbiyaviy ishlarni muayyan maqsad sari yo'naltirish, talabalar tashabbusini qo'llab-quvvatlash, guruhning rasmiy va norasmiy yetakchilari bilan adolatli munosabat o'rnatish hamda shaxsiy fikrlarni jamoa qarashlari bilan uyg'unlashtira olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Natijalarni tahlil qilish jarayonida esa pedagog o'z faoliyatini xolis baholashi, erishilgan yutuq va aniqlangan kamchiliklarni hisobga olib, ularni kelgusi faoliyatida tanqidiy yondashuv asosida qo'llashi lozim. Shuningdek, maqsad, reja va natijalar uyg'unligini ta'minlash, talabalar bilan muloqotni samarali tashkil etish va boshqarishda yetakchilik hamda tashabbuskorlik namoyon etish muhimdir.

Zamonaviy ijtimoiy-psixologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, inson muloqot jarayonida ayrim vaziyatlarda tashabbus ko'rsatuvchi subyekt sifatida, boshqa holatlarda esa sharoitga qarab faol yoki nisbatan passiv ishtirokchi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Kasbiy-pedagogik muloqotning o'ziga xosligi shundaki, unda o'qituvchining tashabbuskorligi nafaqat kommunikativ jarayonni, balki butun o'quv-tarbiyaviy faoliyatni boshqarish vositasiga aylanadi. Ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan, dars jarayonida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning ijodiy hamkorligi asosida bilimga yo'naltirilgan izlanishlarni samarali boshqarish faqat to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot orqali ta'minlanadi. Masalan, yangi mavzuni tushuntirish, muammoli vaziyat yaratish yoki murakkab tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida guruh bilan muloqotni oqilona yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Natijada talabalar jamoaviy hamkorlik asosida erkin fikr yuritadi va izlanish olib boradi.

Muloqot jarayonida o'qituvchining tashabbuskorligi ta'lim-tarbiyaviy hamda ijtimoiy-psixologik masalalarning strategik va taktik yechimlarini topishga xizmat qiladi. Bu orqali o'qituvchi o'quv jarayonida yo'naltiruvchi rolni bajaradi, talabalarda ijobiy emotsional muhitni shakllantiradi hamda samarali ta'lim uchun zarur bo'lgan sog'lom psixologik sharoitni yaratadi.

Dars jarayonida o'qituvchining tashabbuskorligi quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- guruh bilan dastlabki muloqotni puxta va maqsadli tashkil etish;
- tashkiliy jarayonlardan bevosita va erkin muloqotga tezkor o'tish;
- talabalar bilan ijtimoiy-psixologik hamkorlikni yo'lga qo'yish yo'llarini izlash;
- salbiy to'siqlarning oldini olish va hamkorlikni mazmunli tashkil

etish;

- shaxsiy ijobiy fazilatlarni namoyon etish;
- stereotip salbiy munosabatlarni bartaraf etish;
- jamoa bilan ijobiy va barqaror munosabatni shakllantirish;
- talabalarni erkin muloqotga undovchi vazifalarni ongli ravishda qo'yish;
- zamonaviy va samarali pedagogik talablarni qo'llash;
- tashqi ko'rinish va muomala madaniyati orqali ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- nutqiy va noverbal vositalardan samarali foydalanish;
- talabalar bilan do'stona va xayrixoh munosabatni namoyon etish;
- aniq pedagogik maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo'llarini ko'rsatish;
- talabalarning emotsional holatini anglash va hamdardlik bildirish.

Pedagogik adabiyotlarda ta'lim o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati sifatida talqin qilinadi. Biroq mazkur faoliyatning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari doimo yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada ayrim muammolar yuzaga kelib, ular ta'lim va tarbiyaning mazmuni hamda metodikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zaro hamkorlik o'qituvchi va talabalarning ijtimoiy-psixologik uyg'unligini nazarda tutadi. Biroq amaliyotda dars jarayonida bu jihat har doim ham yetarli darajada inobatga olinmaydi.

Pedagog olimlar tadqiqotlariga ko'ra, mashg'ulot davomida o'qituvchi va talabalar o'rtasida psixologik moslashmovchilikning 25 dan 150 tagacha turli ko'rinishlari kuzatilishi mumkin. Aksariyat hollarda bu jarayon ongli ravishda nazorat qilinmaydi va o'qituvchi tomonidan maxsus maqsad sifatida belgilanmaydi. Holbuki, puxta o'ylangan va to'g'ri yo'lga qo'yilgan muloqot tizimi talabalarni faollashtiradi, ularning o'quv jarayonida faol va qiziqish bilan ishtirok etishiga turtki beradi.

Demak, o'quv faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatida ta'lim samaradorligini oshirishning muhim zaxirasi hisoblanadi. Ba'zan mutlaqo yangi metodlarni joriy etishdan ko'ra, mavjud metodikaning mustahkam ijtimoiy-psixologik asoslarini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Darslarni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelayotgan talabalar xulqini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning passivligi, tengdoshlari bilan munosabatdagi sustligi yoki xulq-atvoridagi beqarorlik ko'pincha o'quv faoliyatidan emas, balki jamoada o'z o'rnini topa olmasligi va yetarli darajada do'stona muloqotga ega emasligi bilan bog'liq bo'ladi.

Bunday holatlar talabaning kayfiyati va motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tibbiy ta'lim muassasalarida pedagogik muloqot jarayonida ayrim talabalar haqida o'qituvchida bir qolipdagi tasavvur shakllanib qolishi mumkin. Natijada ular o'qituvchi nigohida barqaror psixologik obyektga aylanadi. Agar talaba "salbiy xulqli" toifasiga kiritilsa, bu holat o'qituvchining unga bo'lgan munosabatiga va muloqot uslubiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqotni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish uning pedagogik madaniyatiga yuqori talablar qo'yadi. Dars va tarbiyaviy tadbirlar o'qituvchi hamda talaba o'rtasidagi munosabatlar tizimini shakllantiruvchi muhim jarayon bo'lib, aynan shu faoliyat davomida pedagog o'zining individual uslubini va professional pozitsiyasini rivojlantiradi.

Tajribali o'qituvchilar bilan suhbatlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida muloqot shaklini tanlash o'rganilayotgan mavzu uchun mos pedagogik metodlarni tanlash bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarlik ko'rishda va tarbiyaviy ta'sir rejasini ishlab chiqishda muloqot tizimining mazmunan boy va samarali jihatlarini oldindan modellashtirish zarurdir²².

Kasbiy faoliyatini endigina boshlayotgan yosh pedagog talabalar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida, ayniqsa, o'zining professional xatti-harakatlarida muayyan psixologik to'siqlarga duch kelishi mumkinligini anglab yetishi zarur. Talabalar bilan muloqotda turli ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'lib, bunday holatlarga tayyor turish uchun u chuqur pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Yosh o'qituvchida muloqot ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan bo'lishi mumkin, bu esa unda ishonchsizlik, hayajon, erkin harakat qila olmaslik kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Ayrim hollarda nutq texnikasidan samarali foydalana olmaslik, mimika va pantomimika vositalaridagi noaniqlik ham kuzatiladi. Ba'zan esa pedagog muloqotda haddan tashqari buyruqbozlikka asoslangan avtoritar uslubni qo'llashi oqibatida o'zaro munosabatlar salbiy tus oladi.

Hatto puxta tayyorlangan ta'limiy topshiriqlar va tarbiyaviy tadbirlar ham yosh o'qituvchi kutganidek qiziqish uyg'otmasligi mumkin. Pedagog

²² Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. // Пед. фанлари докт. илмий дар. учун дисс. – Т., 2007.

nazarida samarali bo'lgan faoliyat talabalarga ta'sir qilmasligi ehtimoli bor. Bir xil qolipdagi salbiy muloqot natijasida o'qituvchi talabalar bilan murosaga kela olmasligi, hatto jamoani tark etishga majbur bo'lishi ham mumkin. Yangi pedagog avvalgi o'qituvchi bilan bog'liq norozilik kayfiyatining sabablarini o'rganishga harakat qiladi, biroq guruhdagi salbiy psixologik muhit unga ham ta'sir etishi ehtimoldan xoli emas.

Kundalik faoliyatda yosh o'qituvchi tezkor va aniq yechim talab qiladigan kutilmagan pedagogik vaziyatlarga duch keladi. Bunday paytda uning aql-zakovati, pedagogik madaniyati, kasbiy tafakkuri, nutq boyligi va umumiy muloqot madaniyati muhim rol o'ynaydi.

Tayyorgarliksiz yuzaga kelgan murakkab pedagogik vaziyatlarda ustunlikni qo'lga kiritish o'qituvchi kasbiy mahoratining sinovidir. Chunki bunday holatlarda muloqotning barcha ehtimoliy variantlarini oldindan rejalashtirish imkonsizdir. Shu bois pedagog improvizatsiya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, vaziyatni tez va chuqur tahlil etishi, talabalarning xatti-harakatini haqqoniy baholashi hamda o'z bilim va tajribasiga tayangan holda tezkor qaror qabul qilishi zarur. Shuningdek, vaziyat o'zgarishiga mos ravishda o'z pedagogik faoliyatini moslashtirib, qabul qilingan qarorni muloqot jarayonida samarali qo'llay olishi lozim.

O'qituvchilarda talabalar bilan muloqot madaniyatining individual uslubini shakllantirish metodikasi bir necha izchil bosqichlarni qamrab oladi:

1. Pedagogning o'z muloqot uslubiga xos shaxsiy xususiyatlarni tahlil qilishi hamda talabalar individual sifatlarini chuqur o'rganishi. Talabaning psixologik va shaxsiy jihatlariga to'liq tavsif berish muloqotni samarali tashkil etishning muhim omili hisoblanadi.
2. Shaxsiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish. Jumladan, qo'pollik, bepisandlik kabi salbiy ko'rinishlarni yengish ustida ishlash.
3. O'qituvchining o'zi uchun qulay va samarali muloqot uslubini ishlab chiqishi, o'z-o'zini kuzatish orqali yutuq hamda kamchiliklarini tahlil etishi.
4. Muloqot jarayonida milliy an'ana va ma'naviy qadriyatlarga mos jihatlardan oqilona foydalanish.
5. Pedagogik faoliyat qonuniyatlariga rioya qilish hamda tanlangan muloqot uslubini amaliyot va malaka oshirish jarayonida mustahkamlash.

Kasbiy faoliyatini endigina boshlayotgan yosh pedagoglar o'z

mahoratini rivojlantirish maqsadida talabalar bilan muloqot madaniyatini izchil ravishda takomillashtirib borishlari lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni yagona maqsad sari yo'naltiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur jarayonda o'qituvchi quyidagi jihatlarni alohida e'tiborga olishi zarur:

- pedagogik faoliyatning dastlabki bosqichidan boshlab muloqot madaniyatiga qat'iy rioya etish, kundalik muomalani vaziyatdan kelib chiqib rejalashtirish, har bir so'z va ohangni nazorat qilish hamda an'anaviy muloqotning ilg'or jihatlarni o'zlashtirish;
- muloqot asosida guruhdagi vaziyatlarni tahlil qilish, talabalarning xatti-harakatini tarbiyaviy ta'sirdan oldingi va keyingi holati bilan qiyoslab baholash;
- o'z muloqot uslubining samaradorligini tanqidiy tahlil etish, aniqlangan kamchiliklarni muntazam ravishda bartaraf etish, nutqda yoqimli ohang va ijobiy xulq-atvorni shakllantirish;
- pedagogik muloqot muvaffaqiyati uchun faqat shart-sharoitlarni bilish yetarli emasligini anglash, balki "ustoz–shogird" an'anasiga xos samimiy muhitni yaratish va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal etish orqali talabalar diqqatini jalb etish;
- talabalar e'tiborini jalb etish o'qituvchining xushmuomalaligi, yuksak madaniyati, ijobiy fazilatlar va talabalar qalbiga yo'l topa olish mahorati bilan bog'liqligini tushunish hamda muloqotning tashkiliy shakllarini ijtimoiy-psixologik asosda qurish.

Mazkur shartlar asosida samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining muloqot madaniyati, etik me'yorga rioya qilishi, odob-axloqi va dilkashligi yuqori darajada bo'lishi talab etiladi. Ushbu fazilatlar pedagogning talabalar jamoasi va ota-onalar bilan samarali munosabat o'rnatishida, aniq maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish va boshqarishda muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiluvchi tibbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisi quyidagi sifatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim:

- jamiyatning ijtimoiy-siyosiy talablariga mos, yuksak ma'naviyatga ega, mustahkam e'tiqodli, milliy g'oya va vatanparvarlik ruhida shakllangan faol shaxs bo'lish;
- talabalarga nisbatan samimiy munosabat, ularning ehtiyojlari va xulq-atvor motivlarini anglash ko'nikmasiga ega bo'lish;

- jamiyat va dunyoda yuz berayotgan voqealarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka ochiqlik va ijodiy izlanish qobiliyatini namoyon etish;
- favqulodda vaziyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga ongli munosabat bildirish, maqsad qo'yish, rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- pedagogik va jamoatchilik faoliyatida tashkiliy va boshqaruvchanlik salohiyatini ko'rsatish, keng dunyoqarashga ega bo'lish, ilmiy izlanishga moyillik va kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirish;
- talabalar bilan muloqotda yuqori nutq madaniyatiga ega bo'lish, fikrni ixcham, mazmunli va ta'sirchan ifodalash hamda psixologik ta'sir ko'rsatish vositalaridan samarali foydalanish²³.

Bunday yo'nalishning mazmunida jamiyatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati o'z aksini topgan. Shu bois o'qituvchi mehnatining negizida uning ma'naviy darajasini namoyon etuvchi intellektual ong, yuksak axloqiy fazilatlar, asriy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, zamonaviy yutuqlardan oziqlanadigan milliy dunyoqarash hamda mustahkam e'tiqod kabi mezonlar mujassam bo'lishi lozim.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog shaxsining kasbiy samaradorligi faqat metodik tayyorgarlik va predmet bilimlari bilan emas, balki uning milliy-madaniy muhitga moslashuv darajasi, etnopsixologik sezgirligi hamda ijtimoiy qadriyatlarni anglash darajasi bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan mamlakatimizda o'qituvchilik kasbining etnopsixologik asoslarini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Etnopsixologik yondashuvga ko'ra, har bir millatning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlari uning a'zolarining psixologik xususiyatlarida mujassam bo'ladi. O'zbekiston sharoitida pedagog shaxsining faoliyati milliy mentalitet, sharqona tarbiya an'analari, jamoaviylik tamoyillari hamda ma'naviy-axloqiy ustuvorlik bilan uzviy bog'liqdir.

Milliy mentalitet — bu muayyan xalqning tarixiy-madaniy tajribasi asosida shakllangan barqaror psixologik xususiyatlar tizimidir. O'zbek xalqiga xos bo'lgan quyidagi sifatlar pedagog faoliyatida alohida namoyon bo'ladi:

- kattalarga hurmat va kichiklarga g'amxo'rlik;

²³ Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005

- jamoaviylik va hamjihatlik;
- bag'rikenglik va murosallilik;
- sabr-toqat va vazminlik;
- andisha va ijtimoiy mas'uliyat.

Mazkur sifatlar o'qituvchining talaba bilan munosabatida, pedagogik qaror qabul qilish jarayonida hamda jamoa bilan hamkorlik faoliyatida o'z aksini topadi. Ayniqsa, "ustoz-shogird" an'anasi pedagog shaxsining jamiyatdagi maqomini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ustoz nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviy yetakchi, axloqiy namuna va ijtimoiy yo'l boshchi sifatida qabul qilinadi.

Mamlakatimiz sharoitida pedagog shaxsining etnopsixologik tuzilmasi bir necha o'zaro bog'liq komponentlardan iborat:

Pedagog faoliyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga asoslanadi. O'qituvchi yosh avlodda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy poklik, ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlarni shakllantiradi. Bu jarayonda pedagog o'z shaxsiy namunasini tarbiyaviy vosita sifatida qo'llaydi.

Milliy psixologiyada muloqot jarayoni hurmat, muloyimlik va e'tibor tamoyillariga asoslanadi. Pedagogik muloqotda buyruqbozlikdan ko'ra dialogik yondashuv, tushuntirish va ishonitirish metodlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini etnopsixologik jihatdan boyitadi.

O'zbek milliy ruhiyatida mehr-oqibat va hamdardlik yuqori qadrlanadi. Pedagogik jarayonda bu sifat individual yondashuvni ta'minlaydi, talabalarning psixologik holatini hisobga olish, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish imkonini beradi.

Milliy mentalitetda jamoa bilan ishlash, maslahatlashuv asosida qaror qabul qilish muhim o'rin tutadi. Ta'lim muassasalarida pedagogik kengashlar, metodik birlashmalar, ota-onalar bilan hamkorlik shakllari aynan shu etnopsixologik xususiyatlar bilan izohlanadi.

Axborotlashuv va globallashtirish jarayonlari pedagog shaxsiga yangi talablarni qo'ymoqda. An'anaviy hurmat modeli bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, innovatsion yondashuv, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya kabi sifatlar ham zarur bo'lib bormoqda.

Biroq milliy identitetni saqlash, ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik pedagog shaxsining barqaror asosini tashkil etadi. Shuning uchun zamonaviy o'qituvchi milliy mentalitet va global pedagogik standartlar o'rtasida muvozanatni ta'minlay olishi lozim.

Pedagogning etnopsixologik xususiyatlarni anglagan holda faoliyat yuritishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- ta'lim jarayonida psixologik qulay muhit shakllanishi;
- talabalar motivatsiyasining ortishi;
- pedagogik konfliktlarning kamayishi;
- ma'naviy-tarbiyaviy ishlar samaradorligining oshishi;
- ijtimoiy moslashuv darajasining kuchayishi.

Demak, etnopsixologik kompetensiya pedagogning umumkasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda o'qituvchilik kasbining etnopsixologik xususiyatlari milliy mentalitet, tarixiy an'analar, ijtimoiy qadriyatlar va zamonaviy transformatsion jarayonlar uyg'unligida shakllanadi. Pedagog shaxsining kasbiy samaradorligi uning nafaqat metodik tayyorgarligiga, balki milliy-madaniy sezgirlikiga ham bevosita bog'liqdir.

Shu bois pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida etnopsixologik tayyorgarlikni kuchaytirish, milliy qadriyatlar asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda madaniy sezgirlikni shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqotning tarkibiy jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular pedagog va talabalar o'rtasidagi bevosita hamkorlik bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur jarayonda bir necha bosqichlarni ajratish mumkin.

Birinchi bosqich — tarbiyachining mavjud pedagogik vaziyatni anglab yetishi. Bu jarayon o'qituvchining xotirasida guruh bilan avvalgi muloqot tajribasini tiklashi, vaziyatni tezkor baholashi, uni oldindan rejalashtirilgan model bilan qiyoslashi va zarur hollarda o'z uslubiga tuzatishlar kiritishini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich juda tez kechadi va aynan shu paytda zarur so'z, ohang va xulq-atvor namoyon bo'lishi lozim. Ikkinchi bosqich — samarali muloqot uchun shart-sharoit yaratish. Bunda faqat vaziyatni bilish yetarli emas, balki talabalar diqqatini jalb qilish va ularni o'zaro fikr almashishga safarbar etish muhimdir. Talabaning e'tiborini jalb etish deganda, rejalashtirilgan ta'lim metodlari va tashkiliy shakllar uchun ijtimoiy-psixologik asos yaratish tushuniladi. Afsuski, ayrim yosh pedagoglar talabalar diqqatini tabiiy ravishda o'zlariga qaratilishi lozim deb hisoblab, bu masalaga yetarlicha e'tibor bermaydilar.

Mazkur bevosita muloqot bosqichlari tarbiyaviy ta'sir jarayonida takrorlanib turadi va ularni har doim inobatga olish zarur.

Tarbiyaviy ta'sirni samarali tashkil etish pedagogik muloqot madaniyati va tarbiyachining dilkashligi bilan chambarchas bog'liq. Dilkashlik pedagogning kasbiy tafakkurining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi. U jamoa va individual ish jarayonida talabalar bilan maqsadli muloqot o'rnatishi, uni boshqarishi va yo'naltira olishi zarur. Yosh o'qituvchi uchun pedagogik dilkashlik quyidagi mezonlar bilan belgilanadi: muntazam muloqotga ehtiyoj, hissiy barqarorlik va samarali fikr almashish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Bo'lajak tibbiyot muassasalari pedagoglari kasbiy faoliyatning murakkab va mas'uliyatli xarakterini inobatga olgan holda quyidagi integrativ xususiyatlarga ega bo'lishlari zarur:

Tibbiyot yo'nalishida faoliyat yurituvchi pedagog chuqur nazariy bilim, zamonaviy klinik yondashuvlar hamda dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarini mukammal egallagan bo'lishi lozim. U nafaqat bilim beruvchi, balki klinik vaziyatlarni modellashtira oladigan, diagnostik va davolash algoritmlarini tushuntira oladigan mutaxassis sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Bo'lajak pedagog:

- kompetensiyaviy yondashuvni qo'llay olishi;
- muammoli o'qitish (PBL), simulyatsion texnologiyalar, keys-stadi metodlaridan samarali foydalanishi;
- talabalarda klinik tafakkur va operativ qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantira olishi zarur.

Pedagogik jarayonni loyihalash, o'quv maqsadlarini aniq belgilash va baholash mezonlarini ishlab chiqish uning metodik savodxonligini ko'rsatadi.

Tibbiyot ta'limi inson bilan bevosita ishlashni talab etadi. Shu sababli pedagog:

- milliy mentalitetni hisobga olishi;
- talabalar bilan hurmat va ishonchga asoslangan muloqot o'rnatishi;
- bag'rikenglik va empatiyani namoyon qilishi lozim.

Madaniy sezgirlik klinik kommunikatsiya madaniyatini shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Tibbiyot pedagogi yuqori darajadagi kasbiy etik me'yorlarga amal qilishi zarur. U talabalarga nafaqat klinik bilim, balki shifokorlik deontologiyasi, bemor huquqlariga hurmat, tibbiy maxfiylik kabi tamoyillarni shaxsiy namuna orqali singdirishi lozim.

Samarali pedagog:

- murakkab klinik tushunchalarni sodda va tushunarli ifodalay olishi;

- fikr almashish jarayonini interaktiv tashkil eta olishi;
- konstruktiv bahs-munozara madaniyatini rivojlantira olishi kerak.

Kommunikativ kompetensiya klinik muhokamalarda va konsilium jarayonlarida ayniqsa muhimdir.

Zamonaviy tibbiyot tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Shu bois pedagog:

- o'z faoliyatini tahlil qila olishi;
- ilmiy yangiliklarni muntazam o'rganishi;
- kasbiy malakasini oshirib borishi zarur.

Refleksiv yondashuv pedagogik jarayon sifatini takomillashtirishning muhim mexanizmi hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar, virtual bemor platformalari, simulyatsion markazlar va sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish zamonaviy tibbiyot ta'limining ajralmas qismidir. Bo'lajak pedagog innovatsion vositalarni o'quv jarayoniga integratsiya qila olishi lozim.

Tibbiyot sohasi yuqori mas'uliyat va psixologik zo'riqish bilan xarakterlanadi. Pedagog talabalarga namuna sifatida murakkab vaziyatlarda muvozanatni saqlay olishi, konstruktiv qaror qabul qilishi va psixologik barqarorlikni namoyon etishi kerak.

Bo'lajak tibbiyot muassasalari pedagogi kasbiy, pedagogik, axloqiy va etnopsixologik kompetensiyalar uyg'unligiga ega bo'lgan integrativ shaxs sifatida shakllanishi zarur. Mazkur sifatlarning kompleks rivojlanishi tibbiy ta'lim sifatini oshirish, klinik tafakkurni shakllantirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Kasbiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida o'zaro fikr almashuvni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi dasturiy yo'nalishlarni tavsiya etish mumkin:

1. Kasbiy nuqtayi nazardan o'z-o'zini anglashni amalga oshirish, ya'ni muloqot jarayonida o'zining ijobiy va zaif jihatlarini aniqlash hamda shu asosda o'z-o'zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish. Bunda shaxs o'z tajribasini tahlil qiladi, talabalar bilan muloqot jarayonidagi sezgilarini baholaydi, avvalgi va hozirgi muloqot darajasini qiyoslaydi, ideal muloqot haqidagi tasavvurlarini aniqlaydi hamda boshqalarning (talabalar, hamkasblar) uning muloqot imkoniyatlari haqidagi fikrlarini o'rganadi.
2. Dilkashlik va kommunikativ faollikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar asosida ishlash.
3. Talabalar va boshqa shaxslar bilan turli jamoatchilik tadbirlarida faol ishtirok etish orqali amaliy muloqot tajribasini boyitish

(ma'ruzalar, suhbatlar va boshqalar).

4. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan salbiy hissiyotlarni yengish va kommunikativ ochiqlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi vaziyatlar tizimini shakllantirish.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi tub islohotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish va kafolatlangan natijani ta'minlash o'qituvchi hamda talabaning hamkorlikdagi faoliyati, tanlangan mazmun, metod va vositalarga bog'liqdir. Biroq bu jarayonda hal qiluvchi omil sifatida muloqot etikasi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan muloqot madaniyati ta'lim-tarbiyaviy jarayonning sifat va samaradorligini belgilaydi.

Yoshlarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularda muloqot etikasini shakllantirish kelgusida ularning yetuk mutaxassis sifatida kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda zamon talablari insonlardan erkin muloqot qila olish, yaxshini yomondan farqlash, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashni taqozo etmoqda.

Muloqot — bu insonlar o'rtasida hamkorlik ehtiyojidan kelib chiqadigan ko'p qirrali jarayon bo'lib, u axborot almashinuvi va munosabatlarning rivojlanishini o'z ichiga oladi. Kommunikativ jihatdan muloqot til vositasi orqali amalga oshadi.

Shuningdek, muloqot jarayonida faqat so'zlar emas, balki harakatlar, imo-ishoralar ham muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, muloqotning perseptiv tomoni — suhbatdoshni idrok etish jarayoni ham ahamiyatlidir. Inson boshqa shaxs bilan muloqotga kirishishdan avval unga nisbatan ma'lum munosabatni shakllantiradi va bu jarayon o'zaro ta'sirning sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi²⁴.

Kasbiy-pedagogik muloqot jarayoni odatda besh asosiy bosqichdan iborat bo'ladi:

1. **Mo'ljal olish (orientatsiya) bosqichi.** Bu davrda pedagog muloqot jarayonini ongli ravishda angelaydi, mavjud vaziyatni baholaydi va yangi kommunikativ sharoitga mos ravishda o'z muloqot uslubini aniqlaydi.

²⁴ Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2017. – B.59-62.

2. **E'tiborni jalb etish bosqichi.** Pedagogik faoliyatda talabalar diqqatini barqaror holatda saqlash muhimdir. Samarali muloqot uchun dars jarayonida talabaning e'tibori faol va yo'naltirilgan bo'lishi zarur.
3. **Suhbatdosh qalbiga yo'l topish bosqichi.** Bu bosqich pedagogik muloqotni tashkil etishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, mazmunan kommunikativ aloqani izlash va mustahkamlash jarayonini anglatadi. Masalan, yangi mavzuni tushuntirishdan avval pedagog talabalarni muloqotga ruhiy jihatdan tayyorlaydi. Talabani anglash va his etish kasbiy-pedagogik muloqotning muhim omilidir.
4. **Verbal muloqot bosqichi.** Bu jarayonda pedagog yangi materialni og'zaki shaklda bayon qiladi. Nutq pedagogik muloqot tizimida asosiy vosita bo'lib, u obraz va tasavvurlarni shakllantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.
5. **Kommunikativ ta'sirni kuzatish bosqichi.** Pedagog va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida hissiy holatni nazorat qilish va baholash muhimdir. Pedagogning nutqi jonli, ravon, ohangdor, aniq va sodda bo'lishi lozim. Shundagina tinglovchilar mavzuni to'laqonli va obrazli idrok etish imkoniga ega bo'ladilar²⁵

Pedagog talabaga e'tiborini jamlash uchun zarur sharoit yaratishi lozim. O'zaro tushunish samarali bo'lishi uchun quyidagi besh omil muhim ahamiyat kasb etadi:

- umumiy kasbiy til va tushunchalarga ega bo'lish;
- suhbatdoshning intellektual darajasini inobatga olish;
- yetkazilayotgan axborotning to'liqligi;
- fikrning mantiqiy va izchil bayoni;
- diqqatni muayyan nuqtaga jamlay olish qobiliyati.

Auditoriya bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni hisobga olish, faol o'qitish metodlarini bilish va ularni to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Bunda talabalar muomala madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv muhimdir. Turli bahs-munozara shakllari, ayniqsa og'zaki bahs yuritish qoidalari talabalar muloqot etikasini shakllantirishda katta yordam beradi.

Muloqot etikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. hamkorlik jarayonida shaxslararo ta'sir va muloqot qonuniyatlarini o'rganish;
2. Sharq mutafakkirlarining muloqotga oid qarashlarini tahlil qilish;
3. talabalarni faollikka undovchi muloqot imkoniyatlarini yoritish;

²⁵ Ismailova Z.K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent, Istiqlol, 2003.

4. kasbiy layoqatni rivojlantiruvchi muloqot muhitini shakllantirish;
5. shaxslararo munosabatlarda muloqot rolini kuchaytirish;
6. o'zaro ta'sir natijalarini inobatga olish.

Bo'lajak mutaxassislarda quyidagi kommunikativ sifatlarni shakllantirish zarur: muloqot madaniyatining nazariy asoslarini bilish, shaxslararo va pedagogik muloqot qonuniyatlarini anglash, oilada va jamoada muloqot talablari haqida tasavvurga ega bo'lish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, guruh va jamoalarda muloqot madaniyatini shakllantirish metodlarini egallash hamda psixologik maslahat berish malakasiga ega bo'lish.

Muloqot shaxsning o'zini takomillashtirishi, ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va ma'naviy kamolotga erishishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Muloqot qila olmaslikning asosiy sababi ko'pincha o'zini ortiqcha yoki past baholash natijasida yuzaga keladigan noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish uchun:

1. hamkorlik va insonparvarlikka asoslangan muloqot muhitini yaratish;
2. har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlash;
3. muloqot usullari bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil etish;
4. ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama va treninglar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Muloqotni o'rgatishda o'yin va noo'yin shakllarini uyg'unlashtirish samarali natija beradi. Masalan, dars jarayoniga norasmiy muloqot elementlarini kiritish, didaktik o'yinlardan foydalanish, javoblarning ijobiy jihatlarini tahlil qilish va konstruktiv tanqid madaniyatini shakllantirish talabalar kommunikativ salohiyatini oshiradi.

Sharq jamiyatida ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xosligi mavjud bo'lib, bu jarayonni anglash shaxs ma'naviyati va ruhiyatidagi o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Taklif etilgan tizim asosida faoliyat yuritish pedagogning muhim kasbiy fazilati — dilkashlikni tezroq shakllantirishga xizmat qiladi.

1.3. Tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy (klinik) tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari va mexanizmlari

Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kasbiy tafakkurini shakllantirish jarayoni faqat nazariy bilimlarni yetkazish bilan cheklanmaydi, balki ularni amaliy faoliyatda samarali ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Tibbiyot sohasida yetuk va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy tafakkurni

rivojlantirish muhim pedagogik-psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogik yondashuvlar bilan psixologik metodlarni uyg'un holda qo'llash zarur. Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tafakkurni rivojlantirishda bir qator pedagogik va psixologik omillar alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Kognitiv rivojlanish va mantiqiy fikrlash. Tibbiy ta'limning asosiy maqsadi talabalarni kompleks va murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlashdir. Kasbiy tafakkur esa aniq va mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, talabalarning kognitiv rivojlanishi o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Talabalar o'z bilimlarini faqat eslab qolish bilan cheklanib qolmay, balki ularni tahlil qilish, solishtirish va mustahkamlash orqali o'zlashtiradilar.

Tibbiyot yo'nalishida kognitiv rivojlanish, ya'ni muammolarni yechish, tashxis qo'yish hamda murakkab klinik vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish talabalarni amaliy faoliyatga puxta tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Tibbiy ta'limda interaktiv metodlar, masalan, muammoli o'rganish, simulyatsiya va case-study (vaziyatli o'rganish) orqali talabalar o'z kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

2. Kasbiy identifikatsiya va motivatsiya. Kasbiy tafakkur faqat nazariy bilimlarga asoslanmaydi, balki talabaning o'z kasbiga bo'lgan munosabati, uning kasbiy identifikatsiyasi va motivatsiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan, talaba o'z kasbini chuqur anglab, uni hayotidagi muhim maqsadga aylantirishi kerak. Bu esa motivatsiyani oshiradi va kasbiy tafakkurni rivojlantiradi.

Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish va motivatsiyasini kuchaytirish uchun turli pedagogik usullar qo'llaniladi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, ular uchun tibbiyotning ahamiyatini, inson hayoti va salomatligi uchun javobgarlikni tushunishga yordam berish zarur. Bu, o'z navbatida, kasbiy tafakkurga asos bo'ladi.

3. Tadqiqot va yaratish qobiliyatini rivojlantirish. Tibbiyot sohasida bilimlar bazasining doimiy yangilanib borishi va ilmiy yangiliklarning tez sur'atlarda paydo bo'lishi talabalardan tadqiqot faoliyatiga ochiqlik va yangi ma'lumotlarni qabul qilishga tayyorlikni talab etadi. Talabalarning ijodkorlik hamda ilmiy izlanish qobiliyatini rivojlantirish kasbiy tafakkurni chuqurlashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Pedagogik-psixologik yondashuv esa ularni innovatsion g'oyalar ishlab

chiqishga, yangicha metodlarni qo'llashga va tibbiy bilimlarni turli sharoitlarda moslashuvchan tarzda tatbiq etishga undaydi.

Bu jarayonda talabalar o'zlarini ilmiy ish olib boruvchi mutaxassis sifatida ko'rishlari, tibbiy sohada o'z nuqtai nazarini bildirishlari va yangiliklarni o'rganish uchun motivatsiya olishlari kerak. Bunda o'qituvchilarning ilmiy va metodik yordami talabalar uchun muhim rol o'ynaydi.

4. *Emotsional intellekt va ijtimoiy kompetensiya.* Tibbiyotda kasbiy tafakkur faqat aqliy faoliyat bilan cheklanmaydi. Talabalar emotsional intellekt va ijtimoiy kompetensiyaga ham ega bo'lishi kerak. Tibbiy sohada kasbiy tafakkur, bemorlar bilan muloqot qilish, shoshilinch vaziyatlarda tinch va tezkor qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi. Buning uchun talabalar o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish orqali talabalarning kasbiy tafakkurini yanada boyitish mumkin. O'quv jarayonida rolli o'yinlar, guruhli mashg'ulotlar va simulyatsiya metodlari yordamida talabalar ijtimoiy kompetensiyalarni oshiradilar.

5. *Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish.* Kasbiy tafakkur, ayniqsa, tibbiyotda, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar tibbiy bilimlarni o'rganish jarayonida turli xil vaziyatlarda muammolarni hal qilishga o'rgatiladi. Pedagogik-psixologik yondashuvga ko'ra, tanqidiy tafakkur hamda muammoni yechish ko'nikmalarining rivojlanishi talabaning qarorlarni mustaqil qabul qilishi va muammolarga yangicha, innovatsion yechimlar ishlab chiqishiga zamin yaratadi.

Tibbiy oliy ta'limda bu ko'nikmalarni rivojlantirishda o'qituvchilar turli pedagogik texnikalardan foydalanadilar: masalan, muammoli o'rganish, muhokama va fikr almashish metodlari. Bunday usullar talabalarning tanqidiy fikrlashini va muammolarga yechim topish qobiliyatini shakllantiradi.

6. *Yuqori darajadagi motivatsiya va professional tayyorgarlik.* Kasbiy tafakkur o'qish davomida talabalarning o'z kasblariga bo'lgan yuqori darajadagi motivatsiyasini talab etadi. Pedagogik-psixologik yondashuv, o'qitish jarayonida talabalar uchun eng motivatsion muhitni yaratishga, ularning o'z kasbiga sodiqligini va e'tiborini oshirishga

qaratilgan. Talabalar o'z faoliyatlarining ahamiyatini va manfaatlarini anglab, professional rivojlanishga rag'batlantiriladi.

Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish, pedagogik-psixologik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasini talab qiladi. Tibbiy soha mutaxassislarini tayyorlashda bu jihatlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning professional muvaffaqiyatlari uchun asos bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida qatnashar ekan, u nafaqat o'zining yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini bilan atrofdagilarga namuna bo'lishi, balki kasbiy tafakkuriga tayangan holda pedagogik mahoratini namoyon eta olishi ham zarur. U yetuk mutaxassis sifatida malakali kadrlar tayyorlash ishiga munosib hissa qo'sha bilishi lozim.

Kasbiy mahorat — bu mutaxassisning o'z kasbiga oid nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tajriba, shaxsiy fazilatlar hamda refleksiv qobiliyatlarning uzviy uyg'unligida namoyon bo'ladigan, faoliyatni yuqori samaradorlik va ijodkorlik darajasida amalga oshirish layoqatidir.

Kasbiy mahorat oddiy kasbiy malaka yoki bilimlar yig'indisi emas, balki ularni muayyan vaziyatda to'g'ri qo'llay olish, moslashuvchan qaror qabul qilish va faoliyat natijasini oldindan prognoz qila bilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Kasbiy mahoratning tarkibiy komponentlari:

1. **Nazariy tayyorgarlik** — kasbga oid fundamental bilimlar tizimini chuqur egallash va ularni amaliyot bilan bog'lay olish qobiliyati.
2. **Amaliy kompetensiya** — kasbiy vazifalarni samarali bajarish, standart va nostandart vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmasi.
3. **Ijodkorlik va innovatsion yondashuv** — mavjud tajribani takrorlash emas, balki yangi metod va yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati.
4. **Refleksivlik** — o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va takomillashtirishga intilish.
5. **Axloqiy barqarorlik** — kasbiy etika me'yorlariga sodiqlik, ijtimoiy mas'uliyat va professional halollik.
6. **Kommunikativ mahorat** — kasbiy muloqotni samarali tashkil etish, hamkorlik va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish qobiliyati.

Pedagogik faoliyatda kasbiy mahorat

Pedagog uchun kasbiy mahorat o'quv jarayonini ilmiy asosda loyihalash, talabalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, murakkab vaziyatlarda pedagogik muvozanatni saqlash va shaxsiy namuna orqali

tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Xususan, tibbiyot ta'limida kasbiy mahorat klinik tafakkurni shakllantirish, simulyatsion texnologiyalarni qo'llash, dalillarga asoslangan qaror qabul qilishni o'rgatish va talabalarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shunday qilib, kasbiy mahorat — bu mutaxassisning kasbiy faoliyatini yuqori sifat darajasida, mas'uliyatli, ijodkor va samarali tarzda amalga oshirishini ta'minlaydigan kompleks integrativ sifatdir. U doimiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va uzluksiz o'zini takomillashtirishni talab etadi.

Bo'lajak hamda yosh o'qituvchilarning kasbiy mahoratga erishishi o'z ustida tizimli ishlash va muayyan shartlarga amal qilish orqali ta'minlanadi. Jumladan:

- tajribali pedagoglar faoliyatini o'rganish, bu jarayonni ta'lim muassasasi doirasida tashkil etish orqali vaqt va iqtisodiy jihatdan samaradorlikka erishish;
- malakali o'qituvchilar darslarini kuzatish, tahlil qilish va olingan xulosalarni umumlashtirish;
- ilmiy anjumanlar, nazariy-amaliy konferensiyalar, seminar va treninglarda muntazam ishtirok etish;
- respublika va xorijiy yetakchi ta'lim muassasalari tajribasini o'rganish.

Pedagogik jarayon mohiyatini chuqur anglamagan va o'quvchiga hurmat bilan yondashmaydigan shaxs ta'lim-tarbiyaning haqiqiy samaradorligini ta'minlay olmaydi. Bo'lajak o'qituvchining pedagogik madaniyati o'quvchini tushuna olish, insonparvar munosabatni qaror toptirish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda pedagogik faoliyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglash kabi fazilatlarga asoslanadi.

Shunday qilib, kasbiy mahorat deganda tibbiy pedagogika yo'nalishi bitiruvchilarining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi tushuniladi. Bu esa ularning mehnat bozorida tanlagan kasbi bo'yicha raqobatbardoshligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichdir.

Kasbiy mahorat bo'lajak mutaxassisning ta'lim muassasasida yuqori darajadagi moslashuvchanligi, yangiliklarni tez o'zlashtirishi, yangi ta'lim-tarbiya jarayoniga yondashuvi va faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Kasbiy mahorat va layoqat shaxsning shunday sifatlaridirki, ular bo'lajak mutaxassisning hayotiy hamda mehnat muvaffaqiyatlarini

belgilab beradi.

Yangi O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy mahoratning asosiy vazifasi jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash, ushbu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini etirof etish emas, balki ularga nisbatan ijodiy yondoshuvni shakllantirish va mustaqil fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qayerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha yerda taraqqiyot, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli o'zluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq, uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishi o'z-o'zidan kadrlar tayyorlash jarayonining yangicha mazmun kasb etishini ta'minlaydi.

Yangicha mazmun kasb etgan kadrlar tayyorlash jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish darajasi va sifat ko'rsatkichining yuqori bo'lishini kafolatlaydi. Bizning nazarimda, kasbiy mahorat bu bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, hayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k) va kasbiy, (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini, chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, o'quvchi-yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab-topib amaliy faoliyatida, qo'llashida namoyon bo'ladi.

Inson esa aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan uzluksiz o'sish jarayonida bo'ladi. Shu bois o'quvchi bilan samarali muloqot qilish va unga maqsadli ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchidan psixologiya hamda tarbiya nazariyasini chuqur va puxta bilish talab etiladi.

Bu o'qituvchidan pedagogik-psixologik tayyorgarlikka va pedagogik texnika qoidalariga ega bo'lish lozimligini ta'kidlaydi. Pedagogik texnika esa o'qituvchiga o'quv faoliyatida ham, o'qishdan tashqari faoliyatda ham, zarur bo'lgan umumiy, pedagogik majmuidan tashkil topadi.

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida o'qituvchining nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin.

Zamonaviy globallashtirish jarayonlari va mehnat bozori talablari

mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmuni an'anaviy bilim berish modeli bilan cheklanmay, kompetensiyaviy, amaliy va innovatsion yo'nalishga ega bo'lib bormoqda.

Xorijiy davlatlarda mutaxassislarni tayyorlash mazmuni quyidagi asosiy tamoyillar asosida shakllantiriladi:

Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Kanada va Avstraliya ta'lim tizimlarida o'quv dasturlari natijaviylikka yo'naltirilgan model asosida ishlab chiqiladi. Bu yondashuvda:

- bilim (knowledge),
 - ko'nikma (skills),
 - qadriyat va munosabat (attitudes)
- integratsiyasi asosiy mezon hisoblanadi.

Masalan, Yevropa oliy ta'lim hududida (Bologna jarayoni doirasida) o'quv dasturlari "learning outcomes" tamoyiliga asoslanadi. Har bir fan va modul yakunida talaba qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi aniq belgilab qo'yiladi.

Germaniya, Shveysariya va Avstriyada keng qo'llaniladigan dual ta'lim tizimi nazariya va ishlab chiqarish amaliyotining integratsiyasiga asoslanadi. Talaba o'qish jarayonining muayyan qismini real korxona yoki klinik muhitda o'taydi.

AQSh va Buyuk Britaniyada ham "clinical placement", "internship", "residency" kabi tizimlar orqali kasbiy tajriba shakllantiriladi. Bu model mutaxassisni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlash samaradorligini oshiradi.

Rivojlangan davlatlarda ta'lim mazmuni modulli tizim asosida tashkil etiladi. Talaba:

- individual o'quv trayektoriyasini tanlash,
 - ixtisoslashuv yo'nalishini belgilash,
 - fakultativ fanlarni o'zlashtirish
- imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlaydi va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashuvchanlikni kuchaytiradi.

Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiya ta'lim tizimlarida raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsion muhitlar keng qo'llaniladi.

Tibbiyot sohasida:

- virtual bemor dasturlari,
- 3D anatomik modellar,

- sun'iy intellekt asosidagi diagnostik trening tizimlari ta'lim mazmunining ajralmas qismiga aylangan.

AQSh va Kanada ta'lim tizimida "Problem-Based Learning (PBL)" va "Case Study" metodlari keng qo'llaniladi. Bu yondashuv talabalarda:

- mustaqil fikrlash,
- muammoni tahlil qilish,
- qaror qabul qilish,
- jamoada ishlash

kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda ta'lim mazmuni faqat texnik yoki kasbiy bilim bilan cheklanmaydi. Professional etika, liderlik, kommunikatsiya va ijtimoiy javobgarlik modullari o'quv dasturlariga majburiy komponent sifatida kiritiladi.

Masalan, tibbiyot ta'limida:

- bioetika,
- bemor huquqlari,
- klinik kommunikatsiya,
- interprofessional hamkorlik alohida o'rganiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda mutaxassis tayyorlash bir martalik jarayon emas, balki uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli sifatida qaraladi. Malaka oshirish, sertifikatlash va qayta tayyorlash tizimlari muntazam yangilanib boradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda mutaxassislarni kasbiy tayyorlash mazmuni quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1. Natijaga yo'naltirilganlik.
2. Amaliy kompetensiya ustuvorligi.
3. Innovatsion va raqamli yondashuv.
4. Shaxsga yo'naltirilganlik.
5. Global mehnat bozori talablari bilan uyg'unlik.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash jarayonida ta'lim mazmunining kompetensiyaviy, amaliy va innovatsion xarakterga ega bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Bu tajriba milliy ta'lim tizimini takomillashtirishda, ayniqsa tibbiyot va pedagogika yo'nalishlarida, metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

U tibbiyot instituti bitiruvchisi tegishli yunalish va tayyorgarlik darajasining malakaviy xarakteristikasida ifodalangan va ilmiy asoslangan bilim, kunikma va malakalar shaxsning kasbiy muxim xislatlari tarkibini aks ettiradi.

Tafakkurning o'zi emas, balki odam fikrlaydi. Inson tafakkuri doimo o'ziga xos va individual xususiyatga ega bo'lib, subyektning atrof-muhitdagi ob'ektiv aloqa va munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan, umumlashtirilgan hamda bilvosita tarzda anglashini ifodalaydi. U shuningdek, shaxsning ijodiy va bunyodkorlik faoliyatini, yuz berayotgan hodisalarni oldindan taxmin qilish qobiliyatini hamda yangi g'oya, qarash, faraz va nazariyalarni yaratish jarayonini o'z ichiga oladi.

Tafakkur odamning dunyoqarashini, uning dunyoni his qilishi va idrok etishini, odamning o'z borlig'iga, o'z qilmishlariga, orzu-umidlariga o'zi bergan bahoni doimo kengaytirib boradi.

Inson tafakkuri murakkab va dinamik jarayon bo'lib, u abstraksiyalash va umumlashtirish, tahlil va sintez, taqqoslash hamda analogiya kabi aqliy amallarni qamrab oladi. Shuningdek, tafakkur mazmuni va xususiyatiga ko'ra turli darajadagi murakkab vazifalarni ongli ravishda qo'yish va ularni oqilona hal etishni o'z ichiga oladi. Fikrlovchi odam mantiqiy natija va xulosalar chiqarishga, hayotiy tajribaga, mehnat va kasb malakasi va mahoratiga ega bo'la oladi, u biron-bir masala bo'yicha o'z nuqtayi nazarini isbotlashga, dalillar bilan asoslab berishga va himoya qilishga layoqatli bo'ladi.

Tafakkur voqelikning inson miyasida mavhumlashgan, umumlashgan aks etishidir. U avvalo, ijtimoiy taraqqiyot mahsuli. Chunki, tafakkur kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladi va voqelikning mohiyatini ochib berishni ta'minlaydi. Bunda mavhumlashtirish, tahlil qilish, umumlashtirish kabi usul va yo'llar orqali voqelikning mohiyati tushuncha, g'oya, nazariya kabilarda aks etadi.

Inson ongi ma'lum bir maqsadga tomon yo'naltirilgan jarayondan iborat. Inson ongida voqelik oddiygina aks etib qolmaydi, balki bu in'ikos uni hech qachon qanoatlantirmaydi. Natijada, u o'z amaliy faoliyati yordamida o'zgartirishga harakat qiladi, buning uchun esa bu voqelikning rivojlanish qonunlarini bilishga harakat qiladi. Inson shu tariqa o'z ongida borliqning sub'ektiv in'ikosini hosil qilar ekan, o'z-o'zini ham, o'zining maqsad va manfaatlarini, idealallarini ham, o'z ma'naviy qiyofasini ham anglab boradi. Bunda u o'z atrofidagi voqelikdagi o'zining o'rnini ajratib, o'zining borliqqa munosabatini, nima qilayotganini, qanday maqsad yoki manfaatni ko'zlayotganini o'ziga hisob berib boradi.

Jamiyat o'zining nisbatan qisqa tarixida juda ko'p narsalarga erishdi. Inson fikrlovchi mashinalarni yaratdi. Oyga, Veneraga va Marsga yetib boradigan apparatlarni uchiryapti. Tirik va notirik tabiatning mikroolam sirlariga tobora chuqurroq kirib boryapti. Ilmiy asosda, ongli

ravishda jamiyatning rivojlanishini boshqarib boryapti. Shunga qaramay, hanuz u o'z ong imkoniyatini juda kam biladi va hali yetarli darajada uni yaxshi boshqara olmaydi, shuning uchun buyuk grek faylasufi Sokratni «o'zing o'zingni bil» degan chaqirig'i hozirgi kunda ham ma'lum ma'noda o'z dolzarbligini saqlab qolmokda. Binobarin, jamiyat qurishdagi sub'ektiv omilning o'rni muttasil ortib bormoqda. Yangi kishining, uning ongini shakllantirish jamiyatimizning muhim vazifalaridan biridir. Jamiyatning yetuklik darajasini oshirish ongning yetukligini muttasil oshira borish, insonning ma'naviy dunyosini boyita borish demakdir.

Insonning ijtimoiy ma'naviy faoliyatini to'g'ri tushunish uchun uning bir qancha belgilovchi ko'rsatkichlarini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bular individning mohiyat, ijtimoiy-siyosiy bilish, badiiy estetik va boshqa faoliyat turlarida qatnashish zaruriyatini tushunishni tavsiflovchi tasavvurlarning shakllanganligi, professional tayyorgarlik, tashabbus va mas'uliyat jamiyat manfaatlariga qarshi harakatlarning har qanday turiga murosasizlikdan iboratdir.

Bu esa, o'z navbatida mustaqillik, belgilagan vazifalarni bajarishdagi qat'iylik shu bilan birga o'zini baholash va o'zini nazorat qilish qobiliyatini belgilash imkoniyatini beradi.

Ruhiiy faollik va inson faoliyatini jamiyatimizning hamma faoliyat sohalarida intensivlashtirish lozim. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan faollik iqtisodiy kategoriya bo'lmasdan, balki keng ijtimoiy xarakterga egadir. Bu tushunchaning iqtisodiy-ijtimoiy tomonlarini bog'lab turuvchi zveno inson ma'naviy imkoniyatining darajasidir. Shuning uchun faoliyatni intensivlashtirishning muhim sharti insonning bilish faolligini oshirish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ijodiy yondoshishni o'rnatuvchi tirishqoq sinchkov individni shakllantirishdir.

Har qanday ishning muvaffaqiyati – ommaning unda faol va ongli ravishda qatnashishi bilan hal qiluvchi darajasida belgilanadi. Keng mehnatkashlar ommasining tanlab olingan yo'li-ning to'g'riligiga ishontirish, ularni ruhiy va moddiy jihatdan qiziqtirish, xodimlarning ruhiyatini o'zgartirish taraqqiyoti-mizni jadallashtirishning eng muhim shartlaridir²⁶¹⁹.

Inson ongining faolligi, ayniqsa, uning ijodiy faoliyatida yaqqol

²⁶ Давронов З. Фалсафа. Т.2006. 231 б

namoyon bo'ladi. Inson ijodiy faoliyatini esa ong, ongosti va ongsizlik jarayonlari tashkil qiladi. Lekin ong insonning ijod jarayonida asosiy o'rin tutadi.

Ijod – bu insonning sifat jihatdan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan ruhiy va amaliy faoliyati. Inson o'z ijodi bilan tabiatdan farq qiluvchi «ikkinchi tabiat»ni yaratadi, u tabiiy muhit ichida «sun'iy muhitni» vujudga keltiradi. Keng ma'noda jamiyat ham insonning ijodiy mahsulidir. Inson o'z hayoti faoliyatida foydalanadigan hamma narsalar: buyumlar, kiyimlar, turar-joy-lar, oziq-ovqatlar – hamma-hammasi uning aqlli ijodining mahsulidir. Bulardan tashqari, inson o'z ongli ijodi bilan dinni va fanni ham yaratgan.

Inson yaratuvchilik faoliyatining xarakteriga ko'ra ijodning ixtirochilik, tashkilotchilik, ilmiy, badiiy va texnik turlari farq qilinadi.

Ixtirochilik ijod – bu insonning tabiat va jamiyat qonunlarini ochish, bilish va o'rganish asosida yangi mashina va mexanizmlar yaratishidir.

Tashkilotchilik ijod esa insonning jamiyatda kishilarni boshqarish, ularni uyushtirish, birlashtirish ulug' ishlarga boshlash va boshchilik qilish, xullas, bir butun jamiyat ishlarini tashkil qilish qobiliyatidir.

Ilmiy ijod bo'lsa insonning tabiat, jamiyat va o'z tafakkurida amal qiladigan qonun va qonuniyatlarni kashf qilish, bilib olish bilan bog'liq bo'lgan yaratuvchilik faoliyatidir.

Badiiy ijod esa, ilmiy ijoddan farqli ravishda, insonning san'at va madaniyat sohalarida tabiat va jamiyat hodisalarini, insonning o'zini nafosat qonunlari va prinsiplari asosida badiiy ifodalash faoliyatidir.

Texnik ijod ham ilmiy va badiiy ijodlarning ma'lum sintezidan iborat bo'lib, insonning yangi texnika, texnologiya, mexanizmlar yaratish sohasidagi faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Inson ijodiy faoliyatini bunday turlarga ajratish shartlidir. Aslida, inson ijodi o'z mohiyati jihatdan bir butun faoliyatdir. Insonning ijodi, yaratuvchilik, ijodkorlik qobiliyati uni hayvonot olamidan ajratgan muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Hayvon ijod qilish qobiliyatiga ega emas. Inson esa ongi tufayli ijod qiladi va yaratadi.

Har qanday sog'lom kishi u yoki bu darajada tabiatan ijodiy qobiliyatga ega bo'ladi. Bu ijodiy qobiliyatning dastlabki asosi – kishida yuzaga keladigan ko'ra bilishdir. Ijodiy qobiliyatning yetakchi xususiyati esa ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat rassomga ham, matematik olimga ham, har qanday omilkor kishiga ham xos xususiyatdir. Ruhshunoslar qobiliyatning ikki darajasini farqlaydilar: uning birinchi darajasi reproduktiv aks ettirish bo'lib, ikkinchisi – ijodiy aks ettirishdir.

Qobiliyatning ana shu ikkinchi darajasi, odatda, ijodiy qobiliyat deyiladi. Faqat ana shu ijodiy qobiliyatgina ijodiy jarayonni tug'diradi. Ijodiy qobiliyatning dastlabki ko'rinishi zehn qilishdir. Zehn kishining tashqi ta'sirlarga nisbatan tanlab ta'sirlanish xususiyatini, uning ishchanligidan ifodalanadigan kuchni xarakterlab, muayyan bir faoliyatga nisbatan qiziquvchanlikda, unga nisbatan moyillik va intilishlarda namoyon bo'ladi.

Biron bir faoliyatga nisbatan paydo bo'lgan qiziquvchanlik yoki mayl esa ijodiy qobiliyatning rivojlanish stimulidir, chunki ular kishini ma'lum faoliyatga undaydi. Bu faoliyat jarayonida mavjud mayl va qiziquvchanlik muayyan his-tuyg'ular va kechinmalar ijodning «energetik resurslarini» tashkil qiladi. Umuman, ijodiy qobiliyat ijodkor shaxsining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, u ijodkorning ma'naviy qiyofasini belgilaydi.

Kishidagi ijodiy qobiliyatning ro'yobga chiqishida va rivojlanishida uning o'z iste'dodiga mos faoliyatga va o'z burchiga munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bu munosabatlar uning e'tiqodi, ijtimoiy yo'nalishi hamda ideallarini belgilaydi.

Kishidagi buyuk maqsadning, uning g'oyaviy yo'nalishining, ijodiy qobiliyatining kuchi va barqarorligi asosida uning hayotga munosabati va o'ziga nisbatan talabchanligi yotadi. Hayotda buyuk maqsadlar kishilarda buyuk g'ayrat-shijoatni tug'diradi. Kishilar ijodiy qobiliyatining kuchi ularning ongi, tafakkuri, aqli va e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Biron ishga muhabbat va ehtiros bilan berilishi kishi ijodiy qobiliyati va talantining ro'yobga chiqishining muqarrar shart-sharoitini tashkil qiladi. Bu narsa tanlangan faoliyatning ijtimoiy mohiyatini to'g'ri tushunish, uning natijalarini to'g'ri anglash bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, tabiat va jamiyat hodisalarining ijodkorga qanchalik kuchli ta'sir qilishi bilan ham bog'liqdir.

Turli xil ta'sir tufayli ijodkorda vujudga keladigan his-tuyg'ular, ijodiy kayfiyatlar ijodiy qobiliyatning faolligini oshiruvchi omillar sifatida ijodning «energiya manbai»ni tashkil qiladi.

Ijodiy qobiliyatni faollashtiruvchi, uning ro'yobga chiqishi uchun eng qulay sharoit yaratuvchi ijobiy emotsional holat – bu ilhomdir.

Ilhom, ilhomlanish – insonning aqliy-ijodiy faoliyatida yuz beradigan emotsional ruhiy holatdir. Ijodiy jarayonda ilhomlanishdan iborat bo'lgan emotsional ruhiy holat hamma vaqt ijodkor qobiliyati salohiyatini faol yaratuvchi kuchlarga aylanishiga yordam beradi. Ilhom kelganda, ijodkor favqulodda katta ijodiy yaratuvchilik faoliyatini

ro'yobga chiqarishi mumkin.

Odamda qobiliyat vujudga keltirish uchun foydalaniladigan vositalarning tez-tez takrorlanib turishi va sistemali bo'lishi qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim omilla-ridir. Takrorlash faqat bilim olishning emas, balki tarbiya-lashning ham sababkoridir. Ammo eng muhimi odamda o'z qobili-yatlarini takomillashtirish uchun istak bo'lishi va bu maqsadga erishishga odam qat'iyat bilan kirishmog'i kerak..

Inson oldida turgan muayyan vazifa yoki masala — bu bajarilishi lozim bo'lgan savolning ifodasidir. Ko'pincha bunday masala o'zida erishilishi zarur bo'lgan maqsadni ham mujassam etadi. Maqsad esa shaxsning noma'lum haqiqatni aniqlashga, gumon va shubhalardan xalos bo'lishga yo'naltirilgan intilishidir.

Tafakkurning izlanish bosqichlarida yuzaga kelgan masala turli darajada ifodalanishi mumkin. Bunda qaysi jihatlar ma'lum, qaysilari noma'lum ekani, ularni aniqlash usullari, yechim yo'llari hamda amaliy ahamiyatini belgilash zarur bo'ladi.

Kasbiy tafakkurning keyingi tarkibiy qismlari qo'yilgan savollarga javob topish, masalani hal etishga yordam beruvchi vosita va usullarni izlash, ularni tanlash va amalda qo'llash jarayonida namoyon bo'ladi. Ba'zan inson javobni atrof-muhitdagi obyektlarni kuzatish orqali topadi, bu esa uning sinchkovligi va kuzatuvchanligiga bog'liq. Ayrim hollarda esa yechim to'plangan bilim va tajriba asosida aniqlanadi. Masalan, imtihon topshirayotgan talabaning fikrlashi shunday jarayonga misol bo'la oladi.

Kasbiy tafakkur ijodiy xayol bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy faoliyatda ko'plab savollarga javob aynan tasavvur va faraz orqali topiladi. Ilmiy gipotezalar, kashfiyotlar, texnik ixtirolar ham ko'pincha xayoliy izlanishlar natijasidir. Ijodiy tafakkur jarayonida masalalarni hal qilish mantiqiy fikrlash usullari — tahlil, xulosa chiqarish, dalillash va asoslash orqali yakunlanadi. Masalan, aniq fanlarni o'zlashtirish jarayonida aynan shunday aqliy operatsiyalar qo'llaniladi.

Ijodiy fikrlashda ba'zan xatolar yuzaga kelishi tabiiy. Bunday vaziyatda shubha paydo bo'ladi va natijalarni tanqidiy baholash zarurati tug'iladi. Odatda hukm chiqarish, isbotlash, inkor etish kabi mantiqiy amallar ijodiy tafakkurning asosiy yadrosini tashkil etadi.

Kasbiy tafakkur ko'pincha boshqalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Masalani hal etishda shaxslararo muloqot muhim rol o'ynaydi. Fikr almashish, muhokama, bahs va dalillash kabi jarayonlar ijodiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Fan va texnika taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, yirik ilmiy kashfiyotlar va nazariyalar ko'pincha jamoaviy tafakkur mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Demak, ijodiy tafakkur avlodlar aql-zakovati tajribasining tizimlashuvi natijasida voqelikni yangilik bilan boyitadi²⁷.

Tafakkur muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali uni aniqlashtiradi va yechimi mumkin bo'lgan aniq masalaga aylantiradi. Natijada tafakkur, muammo va masala o'zaro uzviy bog'langan mantiqiy zanjirni hosil qiladi. Ushbu zanjirning har bir bo'g'ini bir-birini taqozo etib, uzluksiz ravishda davom etadi.

Masala muammoli vaziyatdan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Odatda masala shakllantirilganda undagi ma'lum va noma'lum elementlar mantiqiy qismlarga ajratiladi. Masala nutqiy bayon va shartli belgilar yoki abstrakt tushunchalardan iborat bo'ladi. Uning verbal qismida ma'lum ma'lumotlar hamda aniqlanishi lozim bo'lgan jihatlar ajratib ko'rsatiladi. O'quv masalalarida shartlar yechuvchiga tushunarli tarzda ifodalanadi, talab va savollar esa yosh va bilim darajasiga mos ravishda tuziladi. Izlanish, tahlil va mos vositalarni qo'llash natijasida noma'lum element aniqlanadi.

Ijodiy fikrlash jarayoni bir necha bosqichda amalga oshadi.

Birinchidan, hal etilishi lozim bo'lgan masala aniqlanadi. Agar inson oldida muammo mavjud bo'lmasa, tafakkur jarayoni ham faol kechmaydi. Masala qanchalik aniq tushunilsa, uni hal qilish shunchalik osonlashadi. Shuning uchun avvalo shartlar tahlil qilinadi, ma'lum va noma'lum jihatlar ajratiladi.

Ikkinchidan, masalani hal qilish uchun zarur bilim va tajriba safarbar etiladi. Qoidalar, qonuniyatlar, faktlar va ilgari orttirilgan tajriba asosida mos usullar tanlanadi.

Uchinchidan, muammoni hal etish bo'yicha gipoteza ilgari suriladi, turli taxmin va variantlar ishlab chiqiladi hamda ular o'zaro solishtirilib, eng maqbul yechim tanlanadi.

To'rtinchidan, ilgari surilgan gipoteza tekshiriladi. Analogiyalar qo'llanadi, mantiqiy tahlil va sintez amalga oshiriladi, natijada xulosa chiqariladi.

Beshinchidan, agar gipoteza o'zini oqlamasa, u rad etiladi va yangi farazlar ilgari suriladi. Shu tariqa tafakkur jarayoni izchil ravishda davom etadi va muammoning eng maqbul yechimiga erishiladi.

²⁷ Ғозиев Э. Умумий психология. Т., 2010.497 б

Yangi ilgari surilgan amaliy faraz avvalo tafakkur jarayonida bir necha bor tekshirib chiqiladi, shundan so'ng uni amaliyotda sinab ko'rish tavsiya etiladi. Ayniqsa, konstruktiv-texnik masalalarni hal qilishda, ilmiy kashfiyotlar yaratishda, ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatida turli modellar, variantlar, qurilmalar va texnologik yechimlar avval fikran tahlil qilinadi, so'ngra ular orasidan eng maqbul va maqsadga muvofiq variant tanlab olinadi.

Oltinchi bosqichda masala yechimi yakuniy tekshiruvdan o'tkaziladi. Olingan natijalarning to'g'riligi baholanadi va tafakkur jarayoni shu bilan nihoyasiga yetadi. Shundan so'ng masala hal qilingan deb hisoblanadi.

Ijodiy tafakkur jarayonida inson muayyan qiyinchiliklarni yengib o'tadi. Bu qiyinchiliklar obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq bo'lib, turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Zamonaviy pedagogika va ta'lim psixologiyasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri — bilimli, mustaqil fikrlovchi va ijodiy tafakkurga ega shaxsni shakllantirishning samarali yo'l hamda vositalarini ishlab chiqishdir.

Zamonaviy ta'lim tizimining transformatsiyasi, globallashtirish jarayonlari, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda yoshlar psixologiyasidagi o'zgarishlar pedagogik psixologiya fanining oldiga yangi ilmiy va amaliy vazifalarni qo'yimoqda. Pedagogik psixologiya nafaqat ta'lim jarayonini psixologik jihatdan asoslash, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan ham shug'ullanadi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda quyidagi muammolar alohida ahamiyat kasb etadi:

An'anaviy bilim berish modelidan kompetensiyaviy va individual yondashuvga o'tish jarayoni o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi. Har bir ta'lim oluvchining qobiliyati, motivatsiyasi, temperament tipi va o'zlashtirish uslubi turlicha bo'lgani sababli, differensial yondashuvning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan ichki motivatsiyaga bog'liq. Zamonaviy yoshlar orasida axborotning haddan tashqari ko'pligi, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri va tezkor natijaga intilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shuning uchun o'quv motivatsiyasini barqarorlashtirish, ichki ehtiyojga aylantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish pedagogik psixologiya muhim vazifasidir.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Biroq:

- ekran orqali o'qishning kognitiv jarayonlarga ta'siri,
- diqqatning tarqoqlashuvi,
- informatsion stress,
- kiberbog'liqlik

kabi omillar psixologik tadqiqotlarni talab qiladi. Pedagogik psixologiya raqamli savodxonlikni rivojlantirish bilan bir qatorda, sog'lom psixologik muhitni ta'minlash mexanizmlarini ham ishlab chiqishi lozim.

Ta'lim jarayonida muvaffaqiyat faqat intellektual salohiyat bilan emas, balki emotsional barqarorlik va muloqot madaniyati bilan ham belgilanadi. O'quvchilarda empatiya, o'z hissiyotlarini boshqarish, jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirish pedagogik psixologiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Turli ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga integratsiya qilish pedagogik psixologiyadan yangi metodik va diagnostik yondashuvlarni talab etadi. Individual rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muhim masalalardan biridir.

O'quv yuklamasining ortishi, imtihon tizimining murakkablashuvi va ijtimoiy bosimlar yoshlar orasida stress darajasini oshirmoqda. Pedagogik psixologiya o'quv muhitida psixologik xavfsizlikni ta'minlash, zo'riqishni kamaytirish va moslashuv mexanizmlarini shakllantirish yo'llarini ishlab chiqishi zarur.

Zamonaviy pedagogdan yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlik talab etiladi. U:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi,
- konfliktlarni konstruktiv hal qila olishi,
- motivatsiyani rag'batlantirishi,
- refleksiv faoliyat yurita olishi

zarur. Shu bois pedagogik psixologiya o'qituvchilarning psixologik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim.

Bugungi kunda pedagogik psixologiya ta'lim jarayonining insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilganlik va psixologik barqarorlik tamoyillarini ilmiy asoslash vazifasini bajaradi. Raqamli transformatsiya, globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida ushbu fan oldida turgan muammolar kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvni talab etadi.

Shuningdek, murakkab topishmoq shaklidagi testlarni talabalar ixtiyoriga berish. Masalan, bir yigit bilan qiz hordiq chiqarib o'tirgan edi,

yo'lovchilardan biri qizga «bu kim?», deb savol bilan murojaat qildi va u shunday javobni eshitadi:

«Bu yigitning onasi mening onamning qaynonasi bo'ladi». Muammo o'z yechimini kutadi, qiz kim bilan o'tirgan ekan? – ta'limni faol uslublar negizida qurish lozim, toki bunda o'qituvchi bilan talaba hamkorligi ustuvor o'rin egallasin. Test, bahs, ishbilarmonlik o'yinlari, murakkablashtirilgan pedagogik muammo, evristika, trening, psixodrama, boshqotirma, fikrlar jangi kabi faol, mustaqillikka yetaklovchi o'qitish metodlari va shakllari ta'limning negiziga aylanishini ta'minlash.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat tezkor, tashabbuskor, moslashuvchan va maqsadga erishishning samarali usullarini topa oladigan faol shaxslarga ehtiyoj sezmoqda.

Shu sababli G'arb mamlakatlarida ta'lim tizimida bixevioristik yondashuvdan kognitiv yondashuvga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Inson faoliyatini baholashda kognitivizm o'tgan asrning 60-yillarigacha bo'lgan pedagogika va psixologiyada hukmron bo'lgan bixevioristik yondashuvdan quyidagicha farqlanadi:

a) bixevioristik yondashuvda inson xatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi;

b) kognitiv yondashuvda bu xatti-harakatlarda onglilik, ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadi. Bulardan ko'rinib turibdiki, bixevioristik yondashuvda inson ta'lim-tarbiyasi sust, kognitiv yondashuvda esa ular faoldir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yashash va muvaffaqiyat qozonish insondan yuqori darajadagi faollikni talab etadi. Shu bois XX asrning 60-yillaridayoq AQSh va boshqa G'arb mamlakatlarida kognitivizm pedagogika, pedagogik psixologiya hamda didaktika tizimlariga jadal kirib keldi. O'sha davrda keng tarqalgan verbal ta'lim usullari — ya'ni pedagogik muloqot jarayonida ta'lim oluvchining faolligini va o'zligini namoyon etishga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan uyg'unlashib, ongli va kognitiv ta'lim konsepsiyalari shakllandi.

Mazkur yondashuv doirasida ta'limni tashkil etish, metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llash, ta'lim sifatini oshirish hamda mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni shakllantirish masalalari markaziy o'ringa ko'tarildi. Bunda quyidagi tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etdi:

– **kognitivlik** — ta'lim jarayonida shaxsni faol fikrlashga jalb etish, bilish jarayonini yangi va noma'lum masalalarni anglash hamda ularni hal

qilishga yo‘naltirish, natijada mustaqil tafakkur va ijodiy salohiyatni rivojlantirish;

– **dialogik ta’lim** — o‘quv mavzusi yoki muammoni guruh muhitida o‘qituvchi bilan hamkorlikda muhokama qilish orqali talabalarning faolligini oshirish, ijodiy muhit yaratish va fikr almashinuvini ta’minlash, shu orqali har bir ta’lim oluvchining jarayondagi manfaatdorligini kuchaytirish.

Bu orqali talaba o‘quv jarayonining ob’ektidan uning sub’ektiga aylanadi; – onglilik – ta’lim jarayoniga ongli munosabatni namoyon qilish, berilgan topshiriq yoki vazifalarni fikriy jarayondan o‘tkazish orqali induktiv xulosalar chiqarishga layoqatlilik.

Talabalarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol metodlarning mohiyati shundan iboratki, munozara jarayonida ishtirokchilar asosli va ongli fikr bildirishga intiladilar, natijada shaxsda ijodiy sifatlar shakllanadi. Bunday jarayonda ba’zan fikrlarni tanqidsiz va erkin ifodalash imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, muammo notanish yoki murakkab bo‘lsa, “erkin assotsiatsiya”ga yo‘l berish foydali natija beradi va talaba o‘zi masalaning ratsional yechimini ajratib olishga erishadi.

Shundan kelib chiqib, bugungi ta’lim jarayonida mustaqil fikrlovchi va kasbiy tafakkurga ega ijodkor shaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ta’limni raqamlashtirish va texnologiyalashtirish orqali zamonaviy jamiyatning intellektual salohiyatini kuchaytirish, an’anaviy axborot berishga asoslangan shakllardan faol o‘qitish metodlariga o‘tish, ya’ni “xotira maktabi”dan “tushunish va tafakkur maktabi”ga o‘tish;
- o‘quv jarayonini boshqarishda qat’iy nazorat usullaridan rivojlantiruvchi va faollashtiruvchi metodlarga, jumladan, o‘yin texnologiyalariga asoslangan yondashuvlarga o‘tish.

Bu esa ta’lim oluvchilarning tashkiliy-ijodiy, mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va uni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi;

– ta’lim oluvchi va pedagog o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, ya’ni ta’lim oluvchilarni birgalikdagi jamoa faolligi sifatidagi ishtirokini ta’minlash. Bunda asosiy urg‘u o‘qituvchining bilim berish faoliyatidan talabaning bilim olish faoliyatiga o‘tkaziladi. Buxoro davlat tibbiyot instituti talabalarida mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonlarini kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘lishicha, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash jarayonida voqelashtirish usullari juda ko‘p va rang-barangdir.

Ularning eng muhimlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- har bir mashg‘ulotda talabalar o‘qituvchi yoki darslik tomonidan berilgan ma’lumotni shunchaki takrorlamasdan, pedagog yo‘llanmasi asosida yangi bilimni mustaqil ravishda shakllantira olishlari zarur. Bu jarayon fikrlash orqali bilishga intilish va amaliy ko‘nikmalarning rivojlanishiga olib keladi;
- dars jarayonida talaba passiv tinglovchi emas, balki izlanayotgan, taqqoslayotgan va kashf qilayotgan subyekt bo‘lishi kerak. Uning og‘zidan chiqqan har bir fikr shaxsiy mulohazaga asoslangan bo‘lishi lozim. Bu yondashuv mustaqillik, mas’uliyat va ijodiy ruhni shakllantiradi hamda o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi muloqotni jonli bahs darajasiga olib chiqadi;
- pedagog tomonidan beriladigan yo‘llanmalar shunday tuzilishi kerakki, talabalarning izlanish natijalari mazmunan yaqin bo‘lsa-da, shaklan turlicha namoyon bo‘lsin. Bu esa har bir talabaning o‘zligini namoyon etishiga va sog‘lom musobaqa muhitining shakllanishiga xizmat qiladi;
- talaba izlanish jarayonida o‘z fikrini asoslash, dalillash va himoya qilishga intilishi lozim. Mashg‘ulot mazmuni hamda tashkil etilishi bunga imkon yaratishi, yosh va psixologik xususiyatlarga mos bo‘lishi zarur.

Bugungi kunda ko‘plab darslik va o‘quv qo‘llanmalar talabalarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga yo‘naltirilgan holda ishlab chiqilmoqda.

Yangi avlod darsliklarida mavzularning bosqichma-bosqich murakkablashuvi, kuzatishdan amaliy qo‘llashgacha bo‘lgan jarayonning izchilligi hamda talabaning aqliy faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi ongli-kognitiv yondashuvga mos keladi. Biroq bu usulni amaliyotda izchil qo‘llash tajriba orttirish, uni takomillashtirish va aniqlashtirishni talab etadi.

Uzluksiz ta’lim tizimi oldida turgan vazifalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- verbal-kognitiv ta’lim metodini pedagoglar orasida keng joriy etish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- talabalarni qo‘shimcha axborot manbalari bilan ta’minlash, jumladan, elektron resurslar, ma’lumotnomalar va interaktiv materiallardan foydalanishni kengaytirish;
- o‘quv-uslubiy majmualar va elektron platformalar orqali ta’lim resurslarini boyitish;

– darsliklarni ixchamlashtirib, ularni asosan ijodiy topshiriqlar va fikrlash algoritmlariga yo‘naltirish.

Shuningdek, ayrim darsliklarda eski ilmiy talqinlarga ortiqcha murojaat qilish holatlari uchraydi. O‘tish davri uchun bu tabiiy bo‘lishi mumkin, biroq psixologik va didaktik nuqtayi nazardan materialning ortiqcha murakkablashuvi maqsadga muvofiq emas.

Shuning uchun bunday chekinishlar darsliklardan bosqichma-bosqich chiqarilishi lozim. Buning uchun barcha ta‘lim tizimida, ayniqsa, tibbiy pedagogika yo‘nalishi o‘quv dasturlari va darsliklarini qayta ko‘rib chiqish lozimdek ko‘rinadi. Shuningdek, “tibbiy pedagogika” o‘quv fanini o‘quv rejasiga kiritgan holda ushbu yo‘nalishda darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratish hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri deb hisoblaymiz.

Bunda bosh omil sof pragmatik – dasturda ko‘rsatilgandek, ommaviy amaliy tatbiqqa nozarur ilmiy bilimlar talabalar, uchun ortiqcha ekanligidadir;

–ayrim darsliklarda ba‘zan uchrab turadigan har bir mavzu o‘rganilishini yakunlaydigan va mohiyati ta‘lim oluvchining mustaqil xulosasini tekshirish uchun xizmat qiladigan, «bilib oling» izohi bilan berilgan sharhlarni keltirish shartmikan deb o‘ylaymiz?!

Bunday holatda talaba uni o‘ylab topishdan ko‘ra tayyorini o‘qib olishni afzal ko‘radi! Shuning uchun bular ham o‘ta ixchamlashtirilib, darslikning oxirida berilsa, talabalarni mustaqil izlashga ko‘proq undagan bo‘larmidi deb o‘ylaymiz;

– darsliklarda xususan, takrorlash bo‘limlarida testlar beriladi. Bu testlar esa kognitivlik va verballikdan tamoman yiroq, ular ko‘proq retroskopik va retseptiv tabiatga ega. Bu testlarni ijodiy lashtirish ustida o‘ylash va izlanish davri keldi. Buning uchun, darsliklarda qisman o‘z aksini topgan o‘zimizning eski, sharqona testlarimiz yoki «topqirlar bellashuvi» uchun zarur bo‘lgan savoltopshiriqlar miqdorini oshirish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Shuningdek, bu muammo har tomonlama izchil o‘rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo‘lgan va undan kelib chiqib tegishli chora tadbirlar, istiqbolli rejalar tuzilishi kerak bo‘lgan muammolardandir. Chunki kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy tashxis yoshlarning mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalalari doimo hukumatning diqqat markazida bo‘lsa-da, ammo shaxsning o‘z kelajagini o‘zi o‘ylab ko‘rishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda iqtisodiy o'zgarishlar tufayli qaysidir kasb-hunar sohalari va mutaxassisliklar uchun jamiyat talabi ancha susaygan bir paytda ishlab chiqarishda kadrlar faoliyatini to'g'ri boshqarish imkoniyatining yo'qolayotganligi hamda kasb tanlash va mutaxassislarni tayyorlashdagi muammolar ancha jiddiy masalalardan biri sifatida gavdalanmoqda.

Shuningdek, kasbiy kamolotga erishish shaxs faoliyatining uzoq muddatli davrini qamrab olgan bo'lib, bunda ijtimoiy mavqe, yashash tarzi va avlodlar o'rtasidagi an'analar davom ettirilishi bilan ham tavsiflanishini kundalik hayotning o'zi namoyon etmoqda. Shu sababli oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan talabalarning mutaxassis sifatida kamol topishida ularning shaxsiy hamda kasbiy shakllanishini ta'minlashga to'liq bo'luvchi bir qator omillarni sanab o'tish mumkin:

Mutaxassislarga qo'yiladigan kasbiy va shaxsiy talablarning o'sib borayotganligi. Kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillarning davriy xarakterga egaligi va kasblar to'g'risidagi ijtimoiy ideallarning yagona me'yoring mavjud emasligi.

Kasbiy faoliyat insonning ongli, maqsadga yo'naltirilgan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyati turi sifatida murakkab psixologik mexanizmlarga tayanadi. Har qanday kasbiy jarayon nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki motivatsiya, shaxsiy fazilatlar, emotsional barqarorlik hamda refleksiv qobiliyatlarni ham talab etadi. Shu bois kasbiy faoliyatning psixologik jihatlarini o'rganish mutaxassis tayyorlash jarayonida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy faoliyatning samaradorligi, avvalo, ichki va tashqi motivlar tizimiga bog'liq. Ichki motivatsiya — kasbga qiziqish, o'zini namoyon qilish, kasbiy o'sishga intilish bilan xarakterlanadi. Tashqi motivatsiya esa ijtimoiy maqom, moddiy rag'bat, jamiyat e'tirofi kabi omillar bilan belgilanadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiyaga ega mutaxassislar kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishadi, stressga chidamli bo'ladi va innovatsion yondashuvni qo'llay oladi.

Kasbiy faoliyat tafakkur, diqqat, xotira va idrok kabi kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Murakkab kasblarda, xususan tibbiyot va pedagogikada:

- tezkor tahlil qilish,
- muqobil variantlarni baholash,
- mantiqiy va operativ qaror qabul qilish

muhim ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv moslashuvchanlik va tanqidiy fikrlash professional samaradorlikning asosiy psixologik omillaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy faoliyat ko‘pincha stressli vaziyatlar bilan kechadi. Emotsional barqarorlik — bu shaxsning murakkab sharoitlarda hissiy muvozanatni saqlay olishi va konstruktiv qaror qabul qilishi qobiliyatidir. Stressga chidamlilik, o‘z hissiyotlarini boshqarish va empatiya kasbiy muvaffaqiyatning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ayniqsa inson bilan ishlashga yo‘naltirilgan kasblarda (tibbiyot, pedagogika, psixologiya) bu sifatlar alohida ahamiyatga ega.

Kasbiy faoliyat samaradorligi shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga ham bog‘liq. Mas’uliyatlilik, intizom, tashabbuskorlik, kommunikativlik, sabr-toqat kabi sifatlar professional muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

Temperament turi ham kasbiy faoliyat uslubiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sangvinik tip tezkor qaror qabul qilishda faol bo‘lsa, flegmatik tip barqarorlik va izchillik bilan ajralib turadi.

Ko‘pgina kasblar jamoada ishlashni talab etadi. Muloqot madaniyati, fikrni aniq ifodalash, konstruktiv bahs yuritish va konfliktlarni hal qilish qobiliyati kasbiy samaradorlikning muhim psixologik omillaridan biridir.

Interpersonal munosabatlar sifati ish muhitining psixologik iqlimini belgilaydi va jamoaviy natijalarga ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy kasbiy faoliyat doimiy yangilanishni talab qiladi. Refleksiv qobiliyat — bu shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va takomillashtirishga intilishidir.

Kasbiy refleksiya professional o‘shish, innovatsion yondashuv va uzluksiz ta’lim jarayonining psixologik asosi hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatning muhim psixologik jihatlaridan biri — kasbiy o‘zlikni anglashdir. Shaxs o‘zini muayyan kasb vakili sifatida qabul qilganda, unda professional mas’uliyat, kasbiy g‘urur va sodiqlik shakllanadi.

Kasbiy identifikatsiya shaxsning ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi va professional barqarorlikni ta’minlaydi.

Kasbiy faoliyatning psixologik jihatlarini motivatsion, kognitiv, emotsional va shaxsiy omillarning murakkab integratsiyasidan iborat. Professional samaradorlik faqat bilim va texnik ko‘nikmalarga emas, balki psixologik tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liqdir.

Shu sababli mutaxassislarni tayyorlash jarayonida psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish, stressga chidamlilikni shakllantirish,

kommunikativ madaniyat va refleksiv qobiliyatlarni kuchaytirish ustuvor yoʻnalish sifatida qaralishi lozim.

II-BOB. TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KASBIY (KLINIK) TAFAKKURNING MANTIQUIY-OPERATIV TUZILMASINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

2.1. Tibbiyot xodimlari kasbiy tafakkurini rivojlantirishda mantiqiy-operativ tuzilmaning oʻrni

Zamonaviy sogʻliqni saqlash tizimida tibbiyot xodimlarining kasbiy tafakkuri ularning klinik qaror qabul qilish jarayonidagi aniqlik, tezkorlik va masʼuliyat darajasi bilan bevosita bogʻliqdir. Kasbiy tafakkur — bu nafaqat bilim va koʻnikmalar yigʻindisi, balki murakkab klinik vaziyatlarda muammoni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, ehtimoliy tashxislarni differensial baholash va optimal davolash strategiyasini tanlashga qaratilgan intellektual faoliyat tizimidir. Mazkur jarayon samaradorligi koʻp jihatdan mantiqiy-operativ tuzilmaning shakllanganlik darajasiga bogʻliq.

1. Mantiqiy-operativ tuzilma tushunchasi. Mantiqiy-operativ tuzilma — bu tibbiy tafakkurning ichki mexanizmini tashkil etuvchi, izchil mantiqiy operatsiyalar (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish) hamda amaliy harakatlar algoritmlarining uygʻunlashgan tizimidir. U nazariy bilimlarni klinik vaziyatga moslashtirish, faktlarni tizimlashtirish va qaror qabul qilishning asoslangan modelini yaratishga xizmat qiladi.

Mazkur tuzilma quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi:

- **Kognitiv komponent** – klinik bilimlar, patogenezni tushunish, diagnostik mezonlarni bilish;
- **Analitik komponent** – simptom va sindromlarni ajratish, sabab-oqibat bogʻlanishlarini aniqlash;
- **Algoritmik komponent** – tashxis va davolash boʻyicha bosqichma-bosqich harakatlar ketma-ketligini qoʻllay olish;
- **Refleksiv komponent** – qabul qilingan qarorlarni tanqidiy baholash va xatolarni tuzatish qobiliyati;
- **Operativ-tezkor komponent** – shoshilinch vaziyatlarda tez va asosli qaror qabul qilish.

2. Kasbiy tafakkur rivojida mantiqiy operatsiyalarning ahamiyati. Tibbiyot amaliyotida har bir klinik vaziyat murakkab va koʻp omilli boʻlib, standart sxemalarga toʻliq mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun

shifokor yoki hamshiraning tafakkuri quyidagi mantiqiy operatsiyalar asosida faoliyat yuritadi:

- **Tahlil** – bemor shikoyatlari, anamnez, laborator va instrumental tekshiruv natijalarini ajratish va baholash;
- **Sintez** – ajratilgan belgilarni yagona klinik manzaraga birlashtirish;
- **Taqqoslash** – ehtimoliy tashxislarni o‘zaro solishtirish;
- **Umumlashtirish** – alohida faktlardan umumiy klinik xulosa chiqarish;
- **Prognozlash** – kasallik rivojlanish ehtimolini oldindan baholash.

Mantiqiy-operativ tuzilma rivojlangan tibbiyot xodimi klinik fikrlashda tasodifiylikka emas, balki dalillarga asoslangan qaror qabul qilish modeliga tayanadi. Bu esa diagnostik xatolarni kamaytirish, davolash samaradorligini oshirish va bemor xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

3. Operativlik va klinik qaror qabul qilish. Tibbiy faoliyat ko‘pincha vaqt tanqisligi sharoitida amalga oshiriladi. Ayniqsa, reanimatsiya, shoshilinch jarrohlik, intensiv terapiya kabi yo‘nalishlarda operativ tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy-operativ tuzilma quyidagilarni ta’minlaydi:

- klinik vaziyatni tezkor baholash;
- ustuvor muammolarni aniqlash;
- harakatlar ketma-ketligini belgilash;
- talabalarning mustaqil fikrlash darajasi oshadi;
- tezkor va asosli qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi;
- kasbiy moslashuvchanlik va stressga chidamlilik kuchayadi;

- ta'lim sifati xalqaro standartlarga yaqinlashadi.

Operativ tafakkurni shakllantirishda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biridir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, muammoli o'qitish, simulyatsion texnologiyalar, raqamli platformalar va kompetensiyaviy yondashuv operativ fikrlashni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ularni milliy ta'lim tizimiga ilmiy asosda, bosqichma-bosqich va adaptiv tarzda integratsiya qilish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

III BOB. TIBBIYOT OTMALARIDA MANTIQUIY- OPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI VA AMALIY MODELI

3.1. Tibbiyot OTMalarida mantiqiy-operativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslari

Tibbiyot sohasi – inson hayoti va salomatligini saqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan juda mas'uliyatli va murakkab sohadir. Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan talabalar nafaqat bilim olishlari, balki tibbiy faoliyatda to'g'ri qarorlar qabul qilish, shoshilinch vaziyatlarda tezkor va aniq harakat qilish, murakkab klinik holatlarni tahlil qilish va to'g'ri diagnostika qo'yish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantirishlari zarur. Bunday ko'nikmalarni egallashda kasbiy tafakkurning ahamiyati beqiyosdir.

Kasbiy tafakkur, asosan, biror sohada samarali va professionallikni ta'minlaydigan fikrlash jarayonidir. Tibbiyotda bu, bemor holatini tahlil qilish, diagnostikani to'g'ri qo'yish, terapevtik chora-tadbirlarni belgilash va ularga tegishli muvofiq qarorlar qabul qilish kabi ko'nikmalarda ifodalanadi. Shunday qilib, kasbiy tafakkur nafaqat ma'lum bir soha bo'yicha bilimlarni egallashni, balki ularni amaliyotda samarali qo'llashni ham o'z ichiga oladi.

Tibbiy ta'limning asosiy maqsadi – o'z kasbini mukammal biladigan, shoshilinch vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qiladigan va bemorlarga sifatli xizmat ko'rsatadigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Bunga esa, kasbiy tafakkurning rivojlanishi katta hissa qo'shadi.

Kasbiy tafakkur tibbiy ta'limda qanday rivojlanadi? Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tafakkurni rivojlantirishda bir nechta muhim omillar mavjud:

1. *Tezkor va aniq qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini oshirish:* Tibbiyotda tezkor va aniq qarorlar qabul qilish, ayniqsa shoshilinch holatlarda, bemor hayoti va salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega. Kasbiy tafakkurni rivojlantirish orqali talabalar bunday vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.
2. *Tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatini rivojlantirish:* Tibbiyotda ko'plab vaziyatlar o'zaro bog'liq omillarning birlashmasidan iborat bo'ladi. Kasbiy tafakkur orqali talabalar bu omillarni tahlil qilib, ulardan tegishli xulosa chiqarish va to'g'ri yechim topish qobiliyatini rivojlantiradilar.
3. *Amaliy tajriba asosida fikrlashni rivojlantirish:* Tibbiy ta'lim faqat

nazariy bilimlar bilan cheklanmaydi. Talabalar o'z amaliy mashg'ulotlarida haqiqiy bemorlar bilan ishlash orqali o'z kasbiy tafakkurlarini amalda sinab ko'radilar. Bu esa, ularning kasbiy faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil holatlarga tayyor bo'lishiga yordam beradi.

4. *Muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilishda kreativlikni qo'llash*: Tibbiy sohada yangi va noma'lum holatlar tez-tez uchrab turadi. Kasbiy tafakkur yordamida talabalar yangi muammolarni hal qilish uchun kreativ fikrlashni o'rganadilar, bu esa, ularga samarali va innovatsion yechimlar ishlab chiqishda yordam beradi.
5. *E'tibor va mashaqqatni muvofiqlashtirish*: Tibbiyotda ko'plab holatlar bir vaqtning o'zida bir nechta omillarga bog'liq bo'lgan vaziyatlarni talab qiladi. Kasbiy tafakkurni rivojlantirish orqali talabalar bir nechta masalalarni bir vaqtda hal qilish, e'tibor va kuchni samarali taqsimlashni o'rganadilar.

Kasbiy tafakkurni rivojlantirish tibbiy oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta tashkil etishni talab etadi. An'anaviy ma'ruza va reproduktiv o'qitish modeli klinik faoliyat uchun zarur bo'lgan operativ-mantiqiy, analitik va prognostik fikrlashni to'liq shakllantira olmaydi. Shu bois ta'lim jarayoniga interaktiv, muammoli va simulyatsion metodlarni keng joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Birinchiidan, **case-study (vaziyatli o'rganish)** metodi klinik tafakkurni shakllantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur metod real yoki realga yaqin klinik vaziyatlarni tahlil qilishga asoslanadi. Talaba simptomlar, laborator va instrumental tekshiruv natijalarini o'rganadi, differensial tashxis tuzadi hamda davolash strategiyasini asoslaydi. Bu jarayon tafakkurning quyidagi operatsiyalarini faollashtiradi: analiz, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish. Eng muhimi, talaba tayyor javobni yodlamaydi, balki qaror qabul qilish mexanizmini anglaydi.

Ikkinchiidan, **simulyatsion texnologiyalar** zamonaviy tibbiy ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Yuqori aniqlikdagi manekenlar, virtual bemor platformalari va klinik stsenariylar orqali talabalar xavfsiz muhitda murakkab vaziyatlarni boshdan kechiradilar. Simulyatsiya jarayonida vaqt omili, stress sharoiti va tezkor qaror qabul qilish zarurati yaratiladi. Bu esa operativ-mantiqiy tafakkur va emotsional barqarorlikni birgalikda rivojlantirish imkonini beradi. Simulyatsiyadan so'ng o'tkaziladigan reflektiv debriefing esa qabul qilingan qarorlarni tahlil

qilish va xatolar ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Uchinchidan, **interaktiv metodlar** (aqliy hujum, debat, klaster, muammoli savollar, konsilium shaklidagi muhokamalar) talabalarni faol fikrlash jarayoniga jalb etadi. Bunday metodlar orqali talabalar o‘z fikrini erkin ifodalash, dalillar bilan asoslash va muqobil qarorlarni baholashga o‘rganadilar. Natijada kasbiy tafakkur reproduktiv bosqichdan produktiv va kreativ bosqichga o‘tadi.

Shuningdek, **tanqidiy fikrlashni rivojlantirish** tibbiy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishidir. Talaba klinik ma’lumotni shunchaki qabul qilmasdan, uning ishonchliligi, dolzarbligi va amaliy ahamiyatini baholay olishi zarur. Dalillarga asoslangan tibbiyot (evidence-based medicine) tamoyillarini o‘rgatish aynan tanqidiy tafakkur rivojiga xizmat qiladi. Ilmiy maqolalarni tahlil qilish, klinik protokollarni solishtirish va statistik ma’lumotlarni sharhlash kasbiy tafakkurni chuqurlashtiradi.

Bundan tashqari, **guruh ishlari va rolli o‘yinlar** ham muhim metodik vosita hisoblanadi. Guruhli muhokamalar jamoaviy fikrlash va interprofessional hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Rolli o‘yinlar esa klinik kommunikatsiya, shifokor-bemor munosabatlari va etik qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtiradi. Bu metodlar talabaning kasbiy identifikatsiyasini kuchaytiradi va real amaliyotga psixologik tayyorgarlikni ta’minlaydi.

Shunday qilib, tibbiy oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy pedagogik metodlarni tizimli qo‘llash kasbiy tafakkurni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Interaktiv, simulyatsion va muammoli yondashuvlar talabalarda analitik, operativ va prognostik fikrlashni shakllantiradi hamda ularni real klinik faoliyatga tayyorlaydi. Natijada ta’lim jarayoni bilim uzatishdan kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichiga ko‘tariladi.

Shuningdek, bixeviorizm, geshtaltpsixologiya hamda psixoanaliz vakillari (B. Skinner, A. Bandura, Z. Freyd, A. K. Yung) ham o‘z ta’limotlari negizida tafakkurning turli hodisa sifatidagi ko‘rinishlarini tadqiq qilib o‘z nuqtai nazarlarini asosladilar.

Insonning fikrlash qobiliyati uning fahm-farosati, aql-zakovati, zehniga bog‘liq bo‘ladi. Xuddi shuning uchun ham fikrlash o‘zgarib turuvchi jarayon bo‘lib, o‘zining rivojlanishi davomida ikki yirik bosqichni bosib o‘tadi. Fikrlash jarayonining pastki, quyi bosqichi fahm-farosatdir. Fahm-farosat fikrlash qobiliyatining asosini tashkil etadi. Fikrlash jarayonining yuqori bosqichi aqlidir. Fahm-farosat his-tuyg‘ularga asoslansa, aql ko‘proq bilimga, ilmga tayanadi. Shuning

uchun ham, tiniq, ravon fikrlaydigan kishilarni xalqimiz aqlli odamlar, deb ataydi.

Insonning fikrlash qobiliyati uning bilimi, intellektual salohiyati bilan dialektik aloqador. Fikrlash – doimo harakatda bo‘lgan jarayon bo‘lsa, aql uning hosilasidir. Aql yordamida inson hamisha eng og‘ir vaziyatdan chiqish uchun o‘ziga to‘g‘ri yo‘l topadi. Eng qiyin muammolarni bartaraf etadi.

Inson aqlining samaradorligi uning nafaqat bilimdonligiga, balki o‘sha bilimlarining aniq maqsadga qaratilganligiga, yo‘naltirilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Aqlli kishi nafaqat ko‘p bilimga ega ekanligi, balki o‘sha bilimlarni ezgulik, yaxshilik uchun safarbar qilishi bilan ajralib turadi. O‘z bilimlarini boshqalarning farovon turmushi uchun sarflagan aql sohibi chinakam donishmand darajasiga ko‘tariladi.

Haqiqiy donishmand o‘z tashvishi bilan emas, o‘zgalar dardi bilan yashaydi. Ana shu manfaat qarichi bilan o‘z atrofiga, boshqalarga razm soladi. Donishmandlikning ma’nosi va mazmuni, uning maqsadi – haqiqatni qaror toptirishga, ezgulikka qaratilganligidir. Donishmandlik bilimsiz, ilmsiz sodir bo‘lishi aslo mumkin emas. Lekin bilim, ilm – donishmandlik ham emas. Har qanday bilimdon, ilimli kishi donishmand bo‘lavermaydi. Donishmandlik insonning nafaqat fikrlash jarayonini, balki barcha xayrli, yaxshilikka, ezgulikka qaratilgan barcha ishlarini tartibga soladi, unga izchillik ato etadi va ichki asos beradi. Chunki donishmandlik nafaqat nodir iste’dod, teran bilim, o‘tkir zehnlilik, balki yuksak axloqiylikdir. Aniqroq qilib aytganimizda, donishmandlik – aqliylik va axloqiylik qo‘shiluvining eng baland nuqtasidir.

Hozirgi zamon insonshunos olimlari insonning fikrlash qobiliyatini biri ikkinchisi bilan bog‘liq bo‘lgan ikki: amaliy va nazariy darajalarga bo‘ladilar. Amaliy va nazariy darajalar o‘zaro aloqadorligining mustahkamligi fikrlash tarzida yaqqol namoyon bo‘ladi. Insonning fikrlash tarzi: ochiq (o‘z fikr-mulohazalarini ro‘y-rost, oshkora bayon qilish), ustakorlik (o‘z nuqtai nazarini birdan bayon qilmaslik, boshqalarning fikr-mulohazalarini kutib turish), hushyor (har qanday vaziyatda ham o‘z fikrining yaxshi-yomon tomonlarini ziyraklik bilan tahlil qila bilish, ming marta o‘ylab, keyin so‘ylash), ijodiy (o‘z qarashlarini bayon qilishda no‘ananaviy, nostandart mulohazalarga asoslanish), dogmativ (bir qolipda, bir xil andozada fikr yuritish, mushohada qilayotgan muammosining bir tomonini bo‘rttirib ko‘rsatish), avtoritar (obro‘-e’tiborga, mansabdorning qosh-qovog‘iga qarab fikrlash) kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Fikrlash tarzidagi ro'y-rostlik, oshkoralik doimo o'zgarib turadi. Oshkora fikrlovchi kishi muammolar yechimi uchun tayyor formula yoki bir xil qolip qidirmaydi. O'zi o'ylab topgan yechimini boshqalarga ro'y-rost bayon qiladi, ularni ishontirishga harakat qiladi. Fikrlash tarzida hushyorlik, ustakorlik qilgan kishilarda esa, atrofida sodir bo'lgan o'zgarishlarni mohirlik bilan har tomonlama tahlil qilish malakasi kuchli bo'ladi. Bunday kishilar o'zlarining tajribalari asosida hosil qilingan hukm yoki xulosalarini sekinlik bilan o'zgartiradilar. Boshqacha aytganimizda, bunday kishilarning fikrlash tarzi bir vaqtlar shakllangan stereotiplarga sadoqati bilan boshqalarning fikrlash tarzidan ajralib turadi.

Ijodiy fikrlash tarzi esa kundalik turmushda vujudga kelgan muammolarning yechimlarini izlab topishni taqozo etadi. Buning uchun esa muammolar yechimlarining informatsion modeli bilan insonning amaliy faoliyati, ya'ni ijodkorning xatti-harakati orasidagi farqni ajrata bilish darkor. Sovet hokimiyati yillarida xuddi shu holatga, ya'ni ijodkorning ijodiy fikrlash tarzi bilan uning kundalik xatti-harakati orasidagi nomutanosiblik to'g'ri baholanmadi.

Bunday nomutanosiblikning rivojlanib ketishi ta'lim muassasalarining ishi bilan bog'liq ekanligi hech kimga sir emas. Avvaliga ota-onalarning, so'ngra esa o'qituvchilarning bir qolipdagi ko'rsatmalari bolalarning erkin, mustaqil fikr yuritishiga yo'l bermas edi. Tayyor bilimlarni talabaga yetkazishga va uni o'zlashtirishga mo'ljallangan dogmativ ta'lim uslubi faqat bitta javobga, bitta yechimning to'g'riligiga asoslangan edi. Qolgan yechimlar, boshqa javoblar noto'g'ri, deb hisoblanar edi.

Tafakkur — bu voqelikni inson ongida muhim aloqalar va munosabatlar vositasida bilvosita hamda umumlashtirilgan tarzda aks ettirish jarayoni bo'lib, u bilishning eng yuqori bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Tafakkur sezgi va idrokdan farqli ravishda bevosita hissiy obrazlarga emas, balki tushunchalar, hukmlar va xulosalar tizimiga tayangan holda amalga oshadi. U hissiy idrok chegaralaridan tashqariga chiqib, insonning bilish imkoniyatlarini kengaytiradi, yashirin bog'lanishlarni ochadi hamda voqelikning ichki qonuniyatlarini anglashga xizmat qiladi.

Tafakkurning vositachilik xususiyati shundan iboratki, inson predmet va hodisalarning bevosita kuzatilmaydigan jihatlarini mantiqiy operatsiyalar orqali aniqlaydi. Masalan, sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish, jarayonlarning rivojlanish tendensiyasini aniqlash yoki kelajak natijani prognoz qilish hissiy bilish bilan emas, balki tafakkur faoliyati

bilan bog‘liqdir. Shu bois tafakkur insonning intellektual faoliyatini tizimlashtiruvchi va yo‘naltiruvchi mexanizm hisoblanadi.

Tafakkur sezish va his qilishdan farqli ravishda hissiy jarayon emas, balki mantiqiy-intellektual jarayondir. Sezgi va idrok real voqelikning tashqi belgilarini aks ettirsa, tafakkur esa ularning ichki mohiyatini, umumiy qonuniyatlarini ochib beradi. Demak, tafakkur bilishning sifat jihatdan yangi bosqichi bo‘lib, u empirik tajribani nazariy umumlashtirish darajasiga ko‘taradi.

Tafakkur prognostik xususiyatga ega. Ya’ni u nafaqat mavjud holatni tahlil qiladi, balki kelajakdagi ehtimoliy rivojlanish yo‘nalishlarini oldindan ko‘ra bilish imkonini ham beradi. Prognostiklik tafakkurning amaliy ahamiyatini oshiradi, ayniqsa kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish jarayonida uning roli beqiyosdir. Tibbiyot, pedagogika, boshqaruv va muhandislik sohalarida tafakkurning aynan prognozlash funksiyasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Tafakkur tabiatan ijtimoiy jarayon hisoblanadi. U insoniyat tomonidan yaratilgan til, tushunchalar tizimi va madaniy tajribaga tayangan holda shakllanadi. Har qanday fikrlash faoliyati jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan mantiqiy kategoriyalar, ilmiy tushunchalar va me’yorlar asosida amalga oshadi. Shu bois tafakkur individual jarayon bo‘lsa-da, uning mazmuni va shakli ijtimoiy tajriba bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, tafakkur subyektiv xususiyatga ham ega. Har bir shaxs o‘z tajribasi, bilim darajasi, qadriyatlari va individual-psixologik xususiyatlariga ko‘ra voqelikni turlicha talqin etadi. Demak, tafakkur obyektiv borliqni aks ettirish bilan birga, shaxsning ichki dunyosi va tajribasi bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Tafakkurning turli shakllari — amaliy, nazariy, mantiqiy, kreativ, operativ va prognostik tafakkur — kasbiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Masalan:

- amaliy tafakkur real vaziyatlarda tezkor harakat qilishni ta’minlaydi;
- mantiqiy tafakkur izchil va asosli xulosa chiqarishga xizmat qiladi;
- kreativ tafakkur yangi g‘oya va yechimlar yaratishga imkon beradi;
- operativ tafakkur vaqt cheklangan sharoitda qaror qabul qilishni ta’minlaydi;
- prognostik tafakkur kelajak natijani oldindan baholash imkonini beradi.

Shu tariqa, tafakkur murakkab, ko‘p qirrali va dinamik jarayon bo‘lib, u shaxsning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, klinik yoki pedagogik faoliyatda tafakkurning

rivojlangan darajasi muammoli vaziyatlarni samarali hal qilish, asosli qaror qabul qilish va faoliyat natijalarini prognozlash imkonini beradi.

Demak, tafakkurni rivojlantirish ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, u kasbiy tafakkur shakllanishining metodologik asosini tashkil etadi.

Umumpsixologik ma'noda tafakkur voqelikni umumlashtirilgan va bilvosita aks ettirish jarayoni sifatida izohlanadi. Biroq tibbiyot amaliyotida tafakkur oddiy bilish jarayoni emas, balki hayotiy ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishga yo'naltirilgan maxsus intellektual faoliyat shakliga aylanadi. Shu bois klinik tafakkur tafakkurning kasbiy jihatdan ixtisoslashgan, maqsadga yo'naltirilgan va operativ ko'rinishi sifatida talqin etiladi.

Klinik tafakkur — bu shifokorning bemor holatini tizimli tahlil qilish, simptomlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, differensial tashxis qo'yish hamda optimal davolash strategiyasini tanlashga qaratilgan mantiqiy-intellektual jarayonidir. U nafaqat bilimga, balki vaziyatni tezkor baholash va prognozlash qobiliyatiga tayanadi.

Klinik faoliyatda shifokor ko'pincha to'liq va aniq ma'lumotga ega bo'lmaydi. Simptomlar turli kasalliklarda o'xshash bo'lishi mumkin. Shu sababli klinik tafakkur bilvosita xulosalar chiqarishga asoslanadi. Masalan, subyektiv shikoyatlar va obyektiv tekshiruv natijalari asosida ichki patogenetik jarayon haqida mantiqiy taxmin ilgari suriladi.

Bu jarayonda:

- umumlashtirish (bir nechta simptomni yagona sindromga birlashtirish),
- abstraksiyalash (ikkinchi darajali belgilarni ajratib tashlash),
- analiz va sintez

kabi tafakkur operatsiyalari faol ishlaydi.

Tafakkur odatda muammo yuzaga kelganda faollashadi. Klinik vaziyat esa doimo muammoli xarakterga ega, chunki bemorning hayoti va sog'ligi xavf ostida bo'lishi mumkin. Shifokor:

- mavjud simptomlarni tahlil qiladi,
- ehtimoliy tashxislarni solishtiradi,
- laborator va instrumental tekshiruvlarni rejalashtiradi,
- davolash variantlarini baholaydi.

Demak, klinik tafakkur muammoli vaziyatni bosqichma-bosqich hal qilish algoritmiga asoslanadi.

Umumiy tafakkur nazariy muhokama shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Klinik tafakkur esa ko'pincha vaqt tanqisligi sharoitida amalga

oshadi. Ayniqsa, shoshilinch tibbiy yordam va reanimatsiya holatlarida qaror qabul qilish tezligi bemor hayotini saqlab qolish bilan bevosita bog‘liq.

Shu sababli klinik tafakkur quyidagi xususiyatlarga ega:

- tezkor ma’lumot qayta ishlash;
- ustuvorlikni aniqlash;
- xavf darajasini baholash;
- darhol amaliy choralar ko‘rish.

Bu jarayon operativ-mantiqiy tafakkur elementlarini o‘z ichiga oladi.

Klinik tafakkur deterministik xarakterga ega emas, ya’ni u “bitta simptom — bitta tashxis” kabi qat’iy chiziqli mantiqqa asoslanmaydi. Aksincha, u ehtimollik tamoyiliga tayanadi va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish jarayonini o‘z ichiga oladi. Klinik amaliyotda ko‘plab kasalliklar o‘xshash simptomatika bilan namoyon bo‘lishi, ayrim belgilar esa atipik kechishi mumkin. Shu sababli shifokor mavjud ma’lumotlar asosida kasallik ehtimolini baholaydi, muqobil tashxislarni solishtiradi va eng yuqori ehtimollikka ega variantni tanlaydi.

Bunday yondashuv statistik fikrlashni, ya’ni klinik ma’lumotlarni ehtimollik nuqtai nazaridan tahlil qilishni talab etadi. Masalan, ma’lum yosh guruhida uchraydigan kasalliklar chastotasi, xavf omillari mavjudligi, laborator ko‘rsatkichlarning sezgirlik va spetsifiklik darajasi tashxis qo‘yishda muhim rol o‘ynaydi. Shifokor klinik tajriba, epidemiologik ma’lumotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot (evidence-based medicine) tamoyillarini uyg‘unlashtirgan holda qaror qabul qiladi. Bu esa klinik tafakkurning ilmiy asoslangan va ehtimollik xarakterini namoyon etadi.

Prognostik tafakkur klinik fikrlashning ajralmas qismi bo‘lib, u mavjud holatni baholash bilangina cheklanmay, kelajakdagi ehtimoliy natijalarni oldindan ko‘ra bilishni ham o‘z ichiga oladi. Prognostik tafakkur quyidagi jihatlarida namoyon bo‘ladi:

- kasallik kechishini oldindan ko‘ra bilish va uning bosqichma-bosqich rivojlanishini tahlil qilish;
- asoratlarning xavfini aniqlash va xavf stratifikatsiyasini amalga oshirish;
- bemorning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda davolash strategiyasini tanlash;
- terapevtik choralar samaradorligini oldindan baholash.

Bunda shifokor faqat nazariy bilimga emas, balki klinik tajriba va empirik kuzatuvlarga ham tayanadi. Har bir bemor individual bo‘lgani

sababli, prognostik tafakkur individualizatsiyalangan yondashuvni talab etadi.

Klinik tafakkur jarayoni tashxis qo'yish bilan yakunlanmaydi. Aksincha, u doimiy ravishda o'zini takomillashtirib boruvchi dinamik tizimdir. Qabul qilingan qarorlarni keyinchalik tahlil qilish, davolash natijalarini baholash va aniqlangan kamchiliklar ustida ishlash reflektiv jarayonni tashkil etadi. Refleksiya klinik tafakkurning rivojlanish mexanizmi bo'lib, u shifokorga o'z faoliyatini tanqidiy baholash, diagnostik xatolar sababini aniqlash va kelajakda ularni takrorlamaslik imkonini beradi.

Reflektiv yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tashxis va natija o'rtasidagi moslikni tahlil qilish;
- qaror qabul qilish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash;
- klinik algoritmlarni takomillashtirish;
- shaxsiy kasbiy tajribani umumlashtirish.

Shu tariqa, klinik tafakkur ehtimollik asosida qurilgan, prognostik va reflektiv xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab intellektual jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Uning rivojlangan darajasi diagnostik aniqlik, davolash samaradorligi va bemor xavfsizligining muhim omili hisoblanadi. Demak, klinik tafakkurni rivojlantirish jarayonida ehtimollik fikrlash, statistik tahlil ko'nikmalari va reflektiv kompetensiyani shakllantirish ustuvor pedagogik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Shifokor o'z qarorlarini tanqidiy baholash orqali:

- diagnostik aniqlikni oshiradi;
- kelajakdagi xatolarni kamaytiradi;
- kasbiy o'sishni ta'minlaydi.

Tibbiyot ta'limida klinik tafakkurni shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir. Bu jarayon:

- muammoli o'qitish;
- case-study;
- simulyatsion trening;
- klinik muhokamalar;
- reflektiv debriefing orqali amalga oshiriladi.

Talabalar real klinik vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida tafakkur operatsiyalarini amaliyotga tatbiq etadilar. Natijada nazariy bilimlar klinik fikrlash tizimiga integratsiyalanadi.

Klinik tafakkur — bu tafakkurning kasbiy-ixtisoslashgan, operativ, mantiqiy hamda prognostik shakli bo'lib, u shifokorning diagnostik va

terapevtik faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish imkonini beradigan murakkab intellektual tizimdir. Mazkur tafakkur turi oddiy bilish jarayonidan farqli ravishda bevosita amaliy natijaga — tashxis qo'yish, davolash taktikasini belgilash va kasallik kechishini prognozlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan klinik tafakkur tibbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy intellektual omil sifatida namoyon bo'ladi.

Klinik tafakkurning bilvositalik xususiyati shundan iboratki, shifokor ko'pincha kasallikning ichki mexanizmini bevosita kuzata olmaydi, balki simptomlar, laborator ko'rsatkichlar va instrumental tekshiruv natijalari orqali yashirin patogenetik jarayonlar haqida mantiqiy xulosa chiqaradi. Bu jarayonda analiz va sintez, abstraksiyalash va umumlashtirish operatsiyalari faol ishlaydi. Masalan, bir nechta alomatlarni yagona sindrom doirasida birlashtirish yoki ularni turli kasallik variantlari bilan taqqoslash klinik tafakkurning umumlashtiruvchi xarakterini ko'rsatadi.

Muammolilik klinik tafakkurning ajralmas belgisi hisoblanadi. Har bir klinik holat o'ziga xos bo'lib, noaniqlik elementlarini o'z ichiga oladi. Shifokor mavjud ma'lumotlar asosida ehtimoliy tashxislarni ilgari suradi, ularni mantiqiy asosda saralaydi va eng maqbul variantni tanlaydi. Demak, klinik tafakkur muammoli vaziyatni bosqichma-bosqich hal qilishga yo'naltirilgan dinamik jarayondir.

Operativlik esa klinik tafakkurning amaliy jihatini ifodalaydi. Ayniqsa shoshilinch tibbiy yordam sharoitida qaror qabul qilish tezligi va aniqligi bemorning hayoti bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Operativ tafakkur shifokorga ma'lumotni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, ustuvorlikni aniqlash va tezkor choralar ko'rish imkonini beradi. Bu jarayonda klinik tajriba, bilimlar tizimi va avtomatlashtirilgan intellektual operatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

Prognostiklik klinik tafakkurning yana bir muhim xususiyati bo'lib, u kasallik kechishini oldindan ko'ra bilish, asoratlar xavfini baholash va individual davolash strategiyasini tanlashni nazarda tutadi. Shifokor nafaqat mavjud holatni tahlil qiladi, balki kelajakdagi ehtimoliy natijalarni ham hisobga oladi. Bu esa dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga tayangan holda ehtimollik fikrlashni talab etadi.

Refleksivlik klinik tafakkurning takomillashuv mexanizmi hisoblanadi. Qabul qilingan qarorlarni tahlil qilish, natijalarni baholash va xatolar ustida ishlash shifokorning professional o'sishini ta'minlaydi.

Refleksiya jarayoni klinik tajribaning chuqurlashishiga va diagnostik aniqlikning ortishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, klinik tafakkur murakkab ko'p komponentli intellektual tizim bo'lib, u bilvositalik, umumlashtirish, muammolilik, operativlik, prognostiklik va refleksivlik xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Uning rivojlangan darajasi tibbiy xizmat sifatini, diagnostik aniqlikni va bemor xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Demak, klinik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish tibbiyot ta'limining strategik vazifasi sifatida qaralishi lozim. Mazkur jarayon muammoli o'qitish, simulyatsion trening, klinik muhokamalar va refleksiv tahlil asosida tizimli ravishda tashkil etilgandagina yuqori malakali, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli mutaxassisni tayyorlash mumkin bo'ladi. Klinika amaliyotida samaradorlik va bemor xavfsizligi aynan shunday tafakkurga ega mutaxassis faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

3.2. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda mantiqiy-operativ tafakkurning tarkibiy komponentlari va funksional tuzilmasi

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayoni talabning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki klinik vaziyatlarda tezkor, asosli va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni ham talab etadi. Shu jihatdan mantiqiy-operativ tafakkur kasbiy kompetensiyaning kognitiv-yadroviy elementi sifatida namoyon bo'ladi. U mantiqiy tahlil, vaziyatni tezkor baholash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va optimal qarorni tanlash jarayonlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Mantiqiy-operativ tafakkur kasbiy kompetensiyaning intellektual yadrosi sifatida ko'p komponentli, dinamik va integrativ tuzilishga ega bo'lib, u bilish jarayonlari, tezkor qaror qabul qilish mexanizmlari, ijodiy yondashuv va refleksiv nazorat elementlarining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Mazkur tafakkur turi ayniqsa tibbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki klinik vaziyatlar ko'pincha noaniqlik, vaqt cheklanganligi va yuqori mas'uliyat bilan xarakterlanadi. Uning tarkibiy komponentlari quyidagilardan iborat:

1. Kognitiv-analitik komponent. Kognitiv-analitik komponent mantiqiy-operativ tafakkurning nazariy-intellektual asosini tashkil etadi. U klinik axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tizimlashtirish va mantiqiy

xulosaga kelish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu komponent doirasida talaba:

- simptom va sindromlarni o'zaro differensial farqlaydi;
- etiologik va patogenetik bog'lanishlarni aniqlaydi;
- sabab-oqibat munosabatlarini mantiqiy asosda tahlil qiladi;
- differensial tashxis algoritmini bosqichma-bosqich tuzadi;
- dalillarga asoslangan tibbiyot (evidence-based medicine) tamoyillariga tayangan holda xulosa chiqaradi.

Mazkur komponent kasbiy bilimlarning strukturalashuvi va tizimlashtirilgan fikrlashni ta'minlaydi. Aynan shu bosqichda nazariy bilimlar amaliy vaziyat bilan bog'lanadi va klinik tafakkur shakllanishi uchun intellektual zamin yaratiladi.

2. Operativ-protsessual komponent. Operativ-protsessual komponent tezkor qaror qabul qilish va amaliy harakat algoritmini ishlab chiqish jarayonlarini ifodalaydi. Bu komponent mantiqiy tahlil natijalarini real amaliy faoliyatga tatbiq etish bilan bog'liq bo'lib, vaqt omili va vaziyatning dinamikligi bilan chambarchas aloqadordir. Talaba:

- klinik vaziyatni qisqa vaqt ichida baholaydi;
- xavf darajasini aniqlaydi va prognoz qiladi;
- ustuvorliklarni belgilaydi (triage tamoyillari asosida);
- diagnostik va davolash choralari ketma-ketligini ishlab chiqadi;
- zarur resurslarni safarbar etish bo'yicha qaror qabul qiladi.

Tibbiyot amaliyotida bu komponent klinik protokollar, standart operatsion algoritmlar va favqulodda yordam ko'rsatish me'yorlariga muvofiq tezkor aralashuvni ta'minlaydi. U kasbiy mas'uliyat, aniqlik va qat'iyatlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Evristik-kreativ komponent. Evristik-kreativ komponent nostandart yoki murakkab vaziyatlarda muqobil yechimlarni topish qobiliyatini ifodalaydi. Klinik amaliyotda har doim ham standart algoritmlar yetarli natija bermaydi, shu sababli ijodiy fikrlash va moslashuvchan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ushbu komponent doirasida talaba:

- yangi kombinatsiyalar va diagnostik variantlarni ishlab chiqadi;
- noan'anaviy klinik belgilarni chuqur interpretatsiya qiladi;
- bir nechta ehtimoliy ssenariylarni taqqoslaydi;
- innovatsion texnologiyalar va zamonaviy davolash usullaridan foydalanadi.

Evristik-kreativ komponent tafakkurning moslashuvchanligini oshiradi, klinik tafakkurning stereotiplashib qolishining oldini oladi va murakkab kasbiy vaziyatlarda optimal yechim topish imkonini beradi.

4. Refleksiv-baholash komponenti. Refleksiv-baholash komponenti qabul qilingan qaror va amalga oshirilgan harakatlarning natijalarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda xatolarni aniqlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu komponent kasbiy o'sish va uzluksiz rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Talaba:

- o'z faoliyatini tanqidiy baholaydi;
- klinik natijalarni belgilangan mezonlar asosida tahlil qiladi;
- yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlaydi va sabablari ustida ishlaydi;
- keyingi qaror strategiyasini optimallashtiradi.

Refleksiya jarayoni kasbiy tajribaning to'planishiga, o'zini o'zi rivojlantirishga va professional yetuklikka erishishga xizmat qiladi. Aynan shu komponent orqali mantiqiy-operativ tafakkur doimiy ravishda takomillashib boradi.

5. Motivatsion-aksiologik komponent. Motivatsion-aksiologik komponent mantiqiy-operativ tafakkurning qadriyatga yo'naltirilgan asosini belgilaydi. U kasbiy mas'uliyat, insonparvarlik, etik me'yorlarga sodiqlik va bemor xavfsizligini ustuvor qadriyat sifatida qabul qilish bilan tavsiflanadi. Ushbu komponent quyidagilarni ta'minlaydi:

- kasbiy faoliyatga ongli va mas'uliyatli munosabat;
- tibbiy etika va deontologiya tamoyillariga rioya qilish;
- bemor manfaatlarini ustuvor qo'yish;
- stressli vaziyatlarda ham insoniylik va kasbiy burchni saqlab qolish.

Mazkur komponent operativ qaror qabul qilish jarayonida axloqiy omillarni hisobga olishni kafolatlaydi hamda kasbiy kompetensiyaning ma'naviy-axloqiy negizini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, mantiqiy-operativ tafakkurning tarkibiy komponentlari o'zaro uzviy bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi. Kognitiv-analitik komponent bilimlar asosini yaratadi, operativ-protsessual komponent amaliy harakatni ta'minlaydi, evristik-kreativ komponent moslashuvchanlikni kuchaytiradi, refleksiv-baholash komponenti takomillashuvni rag'batlantiradi, motivatsion-aksiologik komponent esa kasbiy faoliyatning axloqiy yo'nalishini belgilaydi. Ularning integratsiyasi natijasida kasbiy kompetensiya samarali shakllanadi va tibbiyot talabasining professional yetukligi ta'minlanadi.

Mantiqiy-operativ tafakkurning funksional tuzilmasi uning real kasbiy faoliyat jarayonida qanday ishlashini, ya'ni intellektual

jarayonlarning amaliy harakatlar bilan qanday integratsiyalashuvini aks ettiradi. Ushbu tuzilma tafakkurning statik emas, balki dinamik va bosqichma-bosqich rivojlanuvchi mexanizm ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa tibbiy faoliyatda bu mexanizm klinik vaziyatni tezkor anglash, asosli qaror qabul qilish va natijani baholash kabi jarayonlarda namoyon bo'ladi.

Mantiqiy-operativ tafakkurning funksional tizimi quyidagi o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat:

1. Diagnostik-analitik funksiya. Diagnostik-analitik funksiya mantiqiy-operativ tafakkurning boshlang'ich va tayanch bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda shaxs tashqi va ichki axborotni qabul qiladi, uni tahlil qiladi va muammoning mohiyatini aniqlaydi.

Tibbiy amaliyotda bu bosqich quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bemorning shikoyatlari, anamnez va obyektiv ko'rsatkichlarni yig'ish;
- laborator va instrumental tekshiruv natijalarini tahlil qilish;
- simptom va sindromlarni mantiqiy guruhlash;
- asosiy va ikkilamchi belgilarni ajratish;
- muammoning klinik modelini shakllantirish.

Mazkur funksiya klinik vaziyatning mohiyatini aniqlashga xizmat qiladi hamda keyingi qarorlar uchun intellektual asos yaratadi. Diagnostik-analitik jarayon qanchalik chuqur va tizimli bo'lsa, keyingi bosqichlar shunchalik samarali amalga oshadi.

2. Prognostik funksiya. Prognostik funksiya vaziyatning ehtimoliy rivojlanishini oldindan ko'ra bilish, xavf omillarini aniqlash va oqibatlarni prognoz qilish bilan bog'liq. Bu bosqich tafakkurning strategik jihatini namoyon etadi.

U quyidagilarni qamrab oladi:

- kasallikning rivojlanish ssenariylarini taxmin qilish;
- asoratlarni ehtimolini baholash;
- xavf darajasini stratifikatsiya qilish;
- davolash choralari natijasini oldindan modellashtirish.

Prognostik fikrlash tibbiyot xodimiga nafaqat mavjud vaziyatni baholash, balki kelajakdagi ehtimoliy o'zgarishlarga tayyor turish imkonini beradi. Bu esa kasbiy qarorlarning xavfsizligi va samaradorligini oshiradi.

3. Loyihalash (konstruktiv) funksiya. Loyihalash yoki konstruktiv funksiya diagnostik va prognostik xulosalar asosida aniq amaliy

harakatlar algoritmini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu bosqichda nazariy tahlil real faoliyat dasturiga aylanadi.

Mazkur funksiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- diagnostik va davolash algoritmini tuzish;
- ustuvor choralarni belgilash;
- vaqt va resurslarni oqilona taqsimlash;
- klinik protokollar va standartlarga mos harakat rejasini ishlab chiqish.

Konstruktiv funksiya operativ tafakkurning amaliy ifodasi bo'lib, qarorlarni tizimli va izchil ravishda amalga oshirishni ta'minlaydi.

4. Regulyativ funksiya. Regulyativ funksiya faoliyat jarayonini nazorat qilish va boshqarish bilan bog'liq. Bu bosqichda qabul qilingan qarorlar ijrosi monitoring qilinadi hamda zarurat tug'ilganda tuzatishlar kiritiladi.

U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini kuzatish;
- klinik holat dinamikasini baholash;
- rejalashtirilgan algoritmgaga moslikni tekshirish;
- zarur holatlarda taktikani o'zgartirish.

Regulyativ funksiya moslashuvchanlikni ta'minlaydi va qarorlarning qat'iy qolipga tushib qolishining oldini oladi. Ayniqsa o'zgaruvchan klinik vaziyatlarda bu bosqich muhim ahamiyatga ega.

5. Refleksiv-korreksion funksiya. Refleksiv-korreksion funksiya mantiqiy-operativ tafakkurning yakunlovchi va takomillashtiruvchi bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda faoliyat natijalari chuqur tahlil qilinadi, samaradorlik baholanadi va keyingi qarorlar sifatini oshirish uchun xulosalar chiqariladi.

U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- erishilgan natijalarni klinik mezonlar asosida baholash;
- xatolar va kamchiliklarni aniqlash;
- ularning sabablarini tahlil qilish;
- kelgusida yanada samarali strategiyani ishlab chiqish.

Refleksiv-korreksion bosqich kasbiy tajribaning boyishiga, professional o'sishga va operativ tafakkurning doimiy takomillashuviga xizmat qiladi.

Mantiqiy-operativ tafakkurning funksional tuzilmasi diagnostik tahlildan boshlab refleksiv baholashgacha bo'lgan izchil va o'zaro bog'liq jarayonni ifodalaydi. Har bir funksiya o'zaro integratsiyalashgan holda ishlaydi va kasbiy kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Tibbiy

ta'lim jarayonida mazkur funksiyalarni maqsadli rivojlantirish talabalarda tezkor, asosli va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi hamda ularning professional yetukligini ta'minlaydi.

III. Komponentlar va funksiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Mantiqiy-operativ tafakkur murakkab va ko'p darajali dinamik tizim sifatida namoyon bo'lib, uning tarkibiy komponentlari alohida-alohida emas, balki o'zaro uzviy integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Ushbu tizimning samaradorligi aynan komponentlar o'rtasidagi funksional uyg'unlik va ichki muvofiqlik bilan belgilanadi. Har bir komponent mustaqil vazifani bajarish bilan birga, umumiy intellektual mexanizmning ajralmas qismi sifatida ishlaydi.

Kognitiv-analitik komponent mazkur tizimning nazariy-intellektual asosini tashkil etib, diagnostik funksiyani ta'minlaydi. U orqali axborot qabul qilinadi, saralanadi, tahlil qilinadi va mantiqiy umumlashtiriladi. Aynan shu bosqichda muammoning mohiyati aniqlanadi, klinik vaziyatning strukturaviy modeli shakllanadi hamda keyingi qarorlar uchun bilimiy poydevor yaratiladi. Ushbu komponentning rivojlanganligi tashxis qo'yish aniqligi va mantiqiy izchillik darajasini belgilaydi.

Operativ-protsessual komponent esa konstruktiv va regulyativ funksiyalarni amalga oshiradi. U tahlil natijalarini amaliy faoliyatga tatbiq etish, harakat algoritmini ishlab chiqish va qarorlarni real vaziyatda qo'llashni ta'minlaydi. Shu bilan birga, u faoliyatni nazorat qilish, zarurat tug'ilganda taktik tuzatishlar kiritish va vaziyatga moslashishni ham o'z ichiga oladi. Bu komponent tezkorlik, aniqlik va mas'uliyat bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa vaqt cheklangan klinik sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Evristik-kreativ element tizimning moslashuvchanligini ta'minlaydi. Nostandart yoki murakkab vaziyatlarda aynan ushbu komponent muqobil yechimlarni topish, noan'anaviy yondashuvlarni qo'llash va yangicha strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. U stereotip fikrlashning oldini olib, tafakkurning ijodiy va innovatsion salohiyatini yuzaga chiqaradi. Natijada mantiqiy-operativ tafakkur qat'iy qolipga tushib qolmaydi, balki vaziyatga qarab o'zgaruvchan va moslashuvchan bo'lib qoladi.

Refleksiv-baholash komponenti esa butun tizimning o'zini o'zi takomillashtirish mexanizmini ta'minlaydi. U qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilgan harakatlar natijalarini tanqidiy tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Refleksiya orqali tajriba to‘planadi, professional yetuklik oshadi va tizim doimiy ravishda yangilanib boradi.

Shunday qilib, mantiqiy-operativ tafakkur tarkibiy komponentlarining integratsiyasi natijasida yagona, uzluksiz va o‘zini rivojlantiruvchi intellektual tizim shakllanadi. Mazkur tizim kasbiy kompetensiyaning samarali rivojlanishini ta‘minlaydi hamda tibbiy faoliyatda yuqori darajadagi professional natijalarga erishishga xizmat qiladi.

IV. Pedagogik xulosa. Tibbiyot OTMalarida kasbiy kompetensiyaning shakllantirish jarayonida mantiqiy-operativ tafakkurni rivojlantirish maqsadli, tizimli va metodologik asoslangan pedagogik shart-sharoitlar mavjud bo‘lgandagina yuqori samaradorlikka erishadi. Mazkur jarayon spontan emas, balki puxta o‘ylangan didaktik mexanizmlar, innovatsion texnologiyalar va refleksiv nazorat tizimi orqali amalga oshirilishi lozim.

Avvalo, klinik vaziyatli masalalar va simulyatsion mashg‘ulotlardan foydalanish mantiqiy-operativ tafakkurni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Real klinik holatlarga yaqinlashtirilgan o‘quv ssenariylari talabalarda muammoni aniqlash, differensial tashxis qo‘yish, xavf darajasini baholash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Simulyatsion markazlar, virtual bemor dasturlari va klinik stsensariylar orqali talaba xavfsiz muhitda xato qilish va undan saboq olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa nazariy bilimlarning amaliyot bilan integratsiyasini ta‘minlaydi hamda operativ fikrlashning real sharoitga moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, mustaqil ta‘lim jarayonida differensial tashxis algoritmlari bilan tizimli ishlashni tashkil etish ahamiyat kasb etadi. Talaba mustaqil ravishda klinik belgilarni tahlil qiladi, ehtimoliy tashxis variantlarini solishtiradi va dalillarga asoslangan xulosa chiqaradi. Bu jarayonda algoritmik fikrlash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va mantiqiy ketma-ketlikni saqlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Mustaqil izlanish faoliyati talabaning intellektual mustaqilligini oshiradi va operativ tafakkurning chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Uchinchidan, refleksiv tahlil va klinik audit elementlarini ta‘lim jarayoniga joriy etish muhim pedagogik shart hisoblanadi. Talabalar o‘z qarorlarini tanqidiy baholash, xatolarni aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilishga o‘rgatiladi. Klinik audit metodlari orqali davolash jarayonining samaradorligi va protokollarga muvofiqligi tahlil qilinadi.

Refleksiya jarayoni tafakkurning o'zini o'zi takomillashtirish mexanizmini ishga tushiradi va professional o'sishni rag'batlantiradi.

To'rtinchidan, baholash mezonlari aniq diagnostik indikatorlar asosida ishlab chiqilishi zarur. Baholash faqat nazariy bilim darajasini emas, balki klinik tahlil qilish, qaror qabul qilish tezligi, algoritmik fikrlash va refleksiv xulosa chiqarish qobiliyatlarini ham qamrab olishi lozim. Ob'ektiv va mezonli baholash tizimi talabanning real kompetensiya darajasini aniqlash imkonini beradi hamda ta'lim jarayonini individuallashtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mantiqiy-operativ tafakkur kasbiy kompetensiyaning integrativ yadrosi sifatida namoyon bo'ladi. U talabanning bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy qadriyatlarini yagona, o'zaro bog'langan tizimga birlashtiradi. Mazkur tafakkur turi klinik faoliyatda tezkorlik, aniqlik, mas'uliyat va moslashuvchanlikni ta'minlab, yuqori darajadagi professional samaradorlikka erishishga zamin yaratadi. Natijada tibbiyot bitiruvchisi nafaqat bilimli, balki murakkab vaziyatlarda asosli va xavfsiz qaror qabul qila oladigan yetuk mutaxassis sifatida shakllanadi.

Tafakkur voqelikni muhim aloqalar va munosabatlar tizimida bilvosita hamda umumlashtirilgan holda aks ettirish jarayoni sifatida inson bilish faoliyatining oliy bosqichini tashkil etadi. Biroq kasbiy faoliyat doirasida tafakkur umumiy psixologik jarayon sifatida emas, balki ixtisoslashgan, maqsadga yo'naltirilgan va funksional jihatdan murakkablashgan shaklda namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, klinik va pedagogik tafakkur tafakkurning kasbiy transformatsiyalangan ko'rinishlari sifatida talqin qilinadi.

Klinik faoliyatda tafakkur hissiy idrok chegaralaridan tashqariga chiqib, simptomlar ortidagi yashirin patogenetik bog'lanishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shifokor bemorning shikoyatlari, obyektiv tekshiruv natijalari va laborator ko'rsatkichlarini umumlashtirgan holda bilvosita xulosa chiqaradi. Bu jarayonda tafakkurning quyidagi xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi:

- **Bilvositalik** — ichki patologik jarayonni tashqi belgilar orqali anglash;
- **Umumlashtirish** — alohida simptomlarni yagona sindrom yoki nozologik birlik doirasida birlashtirish;
- **Muammolilik** — noaniq klinik vaziyatni mantiqiy bosqichlar asosida hal qilish;
- **Prognostiklik** — kasallik kechishini va ehtimoliy asoratlarni oldindan baholash;

- **Refleksivlik** — qabul qilingan qarorlarni tahlil qilish va takomillashtirish.

Demak, klinik tafakkur tafakkurning operativ-mantiqiy va ehtimollik asosidagi shakli bo‘lib, u real amaliy natijaga — tashxis va davolash strategiyasini belgilashga yo‘naltirilgan.

Pedagogik faoliyatda tafakkur ta‘lim jarayonini loyihalash, o‘quv muammolarini aniqlash va talabalar rivojlanish strategiyasini belgilash jarayonida namoyon bo‘ladi. Pedagog hissiy kuzatuv bilan cheklanmay, o‘quvchining bilish jarayonini, motivatsiyasini va individual xususiyatlarini tahlil qiladi. Bu esa tafakkurning ijtimoiy va subyektiv xususiyatlarini namoyon etadi.

Pedagogik tafakkur quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- ta‘limiy vaziyatni tahlil qilish;
- muammoli savollarni shakllantirish;
- interaktiv metodlarni tanlash;
- ta‘lim natijalarini prognozlash;
- refleksiv baholashni amalga oshirish.

Shu tariqa, pedagogik tafakkur nazariy va amaliy tafakkur integratsiyasiga asoslanadi hamda o‘quv jarayonini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Klinik hamda pedagogik tafakkur ijtimoiy tajriba va professional madaniyat bilan belgilanadi. Har ikki sohada qaror qabul qilish jarayoni ilmiy bilimlar, kasbiy standartlar va etik me‘yorlarga tayanadi. Shu bilan birga, tafakkur subyektiv xarakterga ham ega bo‘lib, mutaxassisning tajribasi, bilim darajasi va shaxsiy fazilatlarini bilan boyiydi.

Shunday qilib, tafakkur klinik va pedagogik faoliyatda kasbiy jihatdan ixtisoslashgan, operativ, prognostik va refleksiv shaklga ega bo‘ladi. Klinik tafakkur bemor xavfsizligi va diagnostik aniqlikni ta‘minlasa, pedagogik tafakkur ta‘lim jarayoni samaradorligi va kasbiy kompetensiya shakllanishini belgilaydi. Har ikki holatda ham tafakkurning rivojlangan darajasi mutaxassisning professional barqarorligi va mas‘uliyatini ta‘minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Demak, oliy ta‘lim tizimida tafakkurni — ayniqsa klinik va pedagogik tafakkurni — maqsadli rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning metodologik poydevorini tashkil etadi.

3.3. Klinik vaziyatlar va simulyatsion texnologiyalar asosida operativ qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi

